




Ака-ука
Grimm



Братья
Гримм



Ertaklar
Сказки



*Rassom
Uyg'un Solihov*

ISBN 978-9943-05-189-8

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008- y.




MITTI
ODAMCHALAR



МАЛЕНЬКИЕ
ЧЕЛОВЕЧКИ



Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2008




UCH BAXTIYOR

Bir dehqonning uch o‘g‘li bo‘lgan ekan. Kunlarning birida u uchovini ham yoniga chaqiribdi-da:

— Men qarib qoldim. Ko‘zimning tirigida merosni sizlarga bo‘lib berishga qaror qildim. Pulim yo‘q. Shuning uchun biringizga — xo‘rozni, ikkinchingizga — o‘roqni, uchinchingizga esa — mushukni meros qilib qoldiraman. Narsalar unchalik qimmatli emas, lekin oqilona foydalanilsa, ular katta naf keltirishi mumkin. Shunday bir mamlakat topishga harakat qilinglarki, u yerdagi odamlar bu narsalarni hali hech qachon ko‘rmagan bo‘lsin, ana o‘shanda sizlarning baxtingiz ochiladi, — debdi.

Shunday qilib, otaning vafotidan so‘ng to‘ng‘ich o‘g‘il xo‘rozi bilan baxt qidirib ketibdi. Lekin qayerga bormasin, xo‘roz azaldan hammaga ma‘lum ekan. Shahar minoralari cho‘qqisiga o‘rnatilgan xo‘rozlar flyugerlar bo‘lib, ular doim



ТРИ СЧАСТЛИВЦА

У одного крестьянина было три сына. Как-то раз позвал он к себе всех троих и сказал:

— Я уже стар и решил, пока жив, поделить между вами наследство. Денег у меня нет, и потому я оставляю в наследство одному из вас петуха, другому — косу, а третьему — кошку. Вещи не очень-то ценные, но если распорядиться ими разумно, и они могут принести большую пользу. Попробуйте-ка найти такую страну, где люди никогда не видали этих вещей, и тогда будете счастливы.

И вот после смерти отца пошел старший брат со своим петухом счастья искать. Но куда бы он ни приходил, петухи везде уже были известны. Это были флюгера, они всё время поворачивались по ветру. А в деревнях петухи так и заливались песнями во всех дворах. Никому эта птица

shamolga qarab burilib turar ekan. Qishloqlarda ham xo'rozsiz hovli yo'q ekan. Bu paranda ajoyibot bo'lmagani uchun, biror kimsa uning xo'roziga qiyo boqib qaramabdi ham.

Nihoyat to'ng'ich o'g'lining omadi kelibdi — u odamlar xo'rozni bilmaydigan orolga tushib qolibdi.

— Bir qaranglar-a, qanday ajoyib qush! — debdi ularga to'ng'ich o'g'il. — Boshida qizil toj, oyoqlarida esa pixi bor. U tunda uch marotaba doimo o'z vaqtida qichqiradi.

Birinchi marta u soat ikkida, ikkinchi marta — soat to'rtida va uchinchi marta — ertalab soat oltida qichqiradi. Bordi-yu, u kunduzi qichqirib qolsa, bu tez orada havo aynishidan darak beradi.



не была в диковинку, никто на его петуха и глядеть не хотел.

Все же наконец старшему брату посчастливилось — он попал на остров, жители которого ещё ни разу не видели петуха.

— Смотрите, какая чудесная птица! — сказал им старший брат. — На голове у неё красная корона, а на ногах шпоры. Она каждую ночь кричит три раза, и всегда в одно и то же время. Первый раз она кричит в два часа, второй раз — в четыре часа и третий раз — в шесть часов утра. А если она закричит днём, это значит, что скоро переменится погода. Петух очень понравился всем жителям острова.



Xo'roz orol aholisiga juda yoqib qolibdi. Ular tun bo'yi uxlamay uning soat ikkida, to'rtda va oltida qichqirib, vaqtdan darak berishini eshitishibdi. Ertalab esa bu qush sotiladimi, uning bahosi qancha, deb so'rashibdi.

To'ng'ich o'g'il:


— Menga uning evaziga bir eshak ko'tarib ketguday oltin bersanglar bas, — debdi.

— Bu bebaho qushni u suv tekinga beryapti-ku! — deb bir ovozdan xitob qilibdi orol ahli va xo'rozni sotib olishibdi.

To'ng'ich o'g'il uyiga qaytib kelganda, ukalari xo'roz badaliga buncha ko'p pul unganiga hayron bo'lishibdi.

— Men ham bir baxtimni sinab ko'ray-chi, — debdi o'rtancha o'g'il. — Zora o'rog'imni yaxshi narxga sotsam. — Shunday deb u yo'lga ravona bo'libdi.

Lekin u qayerlarga bormasin dehqonlarning qo'lida xuddi o'zirikidek o'roqni ko'ribdi.



Они не спали целую ночь и всё слушали, как он звонко выкрикивал время в два, в четыре и в шесть часов. А утром они спросили, не продаётся ли птица и сколько она стоит.

— Дайте мне за неё столько золота, сколько может унести осёл, — отвечал старший брат.

— Да он почти даром отдаёт такую драгоценную птицу! — воскликнули в один голос все жители острова.

И они купили петуха.


Когда старший брат вернулся домой, братья удивились, что он получил за петуха так много денег.

— Пойду-ка и я попытаю счастья, — сказал средний брат. —

Может быть, мне тоже удастся выгодно сбыть свою косу, — и отправился в путь.

Но всюду, где он проходил, он видел у крестьян точно такие же косы, как у него.





Nihoyat uning ham omadi kelib, odamlari o'roqni ko'rmagan orolga tushib qolibdi. Ekilgan donni yig'ishtirib olish uchun ular bug'doyzorga yaqin joyga to'pni g'ildiratib borib otishar, to'p o'qlari esa boshhoqlarni bandidan uzar ekan. Bu juda noqulay ekan, negaki, o'qlar goh tegmay o'tar, goh boshhoqlarning o'ziga tegib ketib, ko'p donni nobud qilar ekan. Otishmaning shovqin-suronini aytmay sizmi.

O'rtancha o'g'il dalaga boribdi-da, bug'doyni shunday tez va tovushsiz o'rib ketibdiki, u yerdagi odamlarning taajjubdan og'izlari ochilib qolibdi. Orolidagi odamlar undan o'rog'ini ularga sotishni iltimos qila boshlashibdi.

— Uning evaziga sizlar menga bir ot ko'tarib ketguday oltin berasizlar, — debdi o'rtancha o'g'il, va pulni olib, xush kayfiyatda uyiga qaytibdi.

Nihoyat uchinchi o'g'il ham mushugi bilan baxt qidirib ketibdi.

Dastlab uning ishi ham akalarinikidek yurishmabdi. U qayoqqa bormasin, hamma yerda mushuk bor ekan. Lekin bir kuni unga ham baxt



Наконец и ему посчастливилось попасть на остров, где люди ещё не видели косы. Когда им надо было убирать созревший хлеб, они подкатывали к полю пушки, стреляли, и пушечные ядра перешибали стебли колосьев.



Это было очень неудобно, потому что ядра то пролетали мимо, то попадали по самым колоскам и портили много зерна. Да и грохоту было много от стрельбы.

Пришел средний брат к этим людям на поле и так быстро и бесшумно начал косить, что они рты разинули от удивления. И спросили они у него: не продаст ли он свою косу, и сколько она стоит

— Дайте мне столько золота, сколько его может унести на себе лошадь, — сказал средний брат.

Получив деньги, он, довольный, вернулся домой.

Наконец отправился и третий брат со своей кошкой счастья искать.

Сначала у него всё шло так же, как и у первых двух братьев. Куда бы он ни пришёл, везде было множество кошек.



kulib boqibdi: u shunday orolga suzib boribdiki, u yerda bitta ham mushuk yo'q ekan. Lekin sichqonlar bu orolda son-sanoqsiz ekan! Ular stol va kursilarning ustida chopib yurishar, odamdan sira cho'chishmas ekan. Orol aholisi ulardan azob chekar, hatto qirolning o'zi ham saroyda sichqonlardan qochib qutula olmas ekan. Sichqonlar burchak-burchaklarda chiyillar, duch kelgan narsani kemirib tashlar ekan.

Kenja o'g'il mushugini qo'yib yubergan ekan, mushuk shu zahotiy oq ovga kirishib ketibdi. Hash-pash deguncha u saroyning katta-katta ikki zalida gi sichqonlarning qironini keltiribdi.

Qirol mushukni sotib olmoqchi bo'libdi va uning evaziga bir tuya ko'tarib ketgudek oltin beribdi. Kenja o'g'il uyga hammadan ko'p pul olib qaytibdi.

Qirol saroyida esa mushuk tutgan sichqonlarning sanog'ija yetib ham bo'lmas emish.




Но вот и ему тоже посчастливилось: он приплыл к такому острову, где не было ни одной кошки. Зато мышей на этом острове развелось видимо-невидимо! Они бегали прямо по столам и скамейкам и совсем не боялись людей.

Все жители острова очень страдали от них, и даже сам король в своём дворце не мог спастись от мышей: мыши пишали по всем углам и сгрызали всё, что им только попадалось.

Вот выпустил младший брат свою кошку, и она тут же принялась за охоту.

Быстрёхонько уничтожила она всех мышей в двух больших залах дворца.

Король захотел купить кошку и дал за неё столько золота, сколько мог унести верблюды, так что третий брат привёз домой денег больше всех.



Charchoqdan mushukning tomog‘i qaqrab, chanqab ketibdi. U tumshug‘ini yuqoriga ko‘tarib: «Miyov, miyov!» deb miyovlay boshlabdi.

Qirol va a‘yonlar bu g‘alati tovushni eshitib, qo‘rqib saroydan qochib ketishibdi.

Qirol maslahatchilarini to‘plabdi, hammalari mushukdan qanday qutulishni o‘ylay boshlabdilar.

Nihoyat: «Bunday azroil bilan yashab, jon hovuchlab yurgandan ko‘ra, sichqonlardan azob chekkanimiz ma‘qul. Sichqonlarga ko‘nikib ketganmiz axir», degan qarorga kelishibdi.

Qirol mushukning oldiga saroydan chiqib ketish to‘g‘risidagi farmon bilan xizmatkorini yuborib:

— Ogohlantirib qo‘y, agar u ketishdan bosh tortsa, ahvoli yomon bo‘ladi! — debdi.



А кошка в королевском дворце столько мышей переловила, что и не сосчитать. Она очень устала, у неё даже в горле пересохло, и захотелось пить. Подняла она кверху мордочку и замыкала: «Мяу, мяу!»

Услыхали король и его придворные этот странный крик, испугались и убежали из дворца.

Собрал король своих советников, и стали они думать, как бы им от кошки избавиться.


Наконец решили:

— Уж лучше мы будем страдать от мышей, чем жить с таким чудовищем и рисковать своей жизнью. К мышам-то мы уже привыкали.

И король послал к кошке слугу с приказом уйти из дворца.

— Если она откажется уйти, предупреди её, что ей будет плохо! — сказал он слуге.





Mushuk esa kengash davom etgan vaqt ichida yana battar chanqabdi. Xizmatkor undan, saroydan yaxshilikcha chiqib ketishga rozimisan-yo‘qmi, deb so‘raganda, mushuk unga javoban yana: «Miyov, miyov!» debdi. Xizmatkorga u: «Yo‘q, yo‘q!» deyayotganday tuyulibdi. U qirolga xuddi shunday deb yetkazibdi.

— Na chora, — debdi qirol, — yaxshilikcha ketishni xohlamasa, zo‘rlab haydab chiqarishga to‘g‘ri keladi.

U hovliga to‘plarni g‘ildiratib chiqishni va saroyga qaratib o‘q otishni buyuribdi. Saroyga o‘t ketibdi. Olov mushuk o‘tirgan xonaga o‘tganda u derazadan bemalol sakrab chiqib qochib ketibdi.

Saroyga esa to undan bir uyum vayrona qolguncha to‘pdan gumburlatib otaverishibdi.

А кошка за то время, пока шёл совет, ещё больше пить захотела.

И когда слуга спросил её, согласна ли она уйти по-хорошему, она в ответ опять промяукала:

«Мяу, мяу!»

Слуге показалось, что она говорит:

«Нет, нет!»

Он так и передал королю.


— Ну что ж, — сказал король, — не хочет по-хорошему уходить, придется насильно выгнать!

Он приказал выкатить во двор пушки и стрелять по дворцу.

Дворец загорелся.

Когда огонь дошёл до той комнаты, где была кошка, она преспокойно выскочила из окна и убежала.

А по дворцу всё палили и палили из пушек — до тех пор, пока от него не осталась лишь груда развалин.





BOTIR TIKUVCHI

Bir nemis shahrida Gans ismli tikuvchi yashagan ekan. U uzzu kun deraza yonidagi stolda oyoqlarini qimtib o'tirib, tikkani-tikkan ekan. U kamzullar, ishtonlar, nimchalar tikar ekan.

Bir kuni Gans stolda ish tikib o'tirib, ko'chada:
— Murabbo! Olxo'ri murabbosi! Kimga murabbo! — deb baqirishayotganini eshitib qolibdi.

«Murabbo!» deb o'ylabdi tikuvchi, — yana olxo'riniki!
Bu juda ajoyib-ku!

U shunday deb o'ylabdi-yu, derazadan qichqiribdi:
— Xola, xola, bu yoqqa keling! Menga murabbodan bering.
U murabbodan yarim banka sotib olibdi, bir burda non kesib, unga murabbodan surtibdi va nimchaning ozgina qolgan chokini tika boshlabdi.

«Hozir, — deb o'ylabdi u, — nimchani tikib bo'laman-u, murabbo yeyman».



ХРАБРЫЙ ПОРТНОЙ

В одном немецком городе жил портной, звали его Ганс.

Целый день сидел он на столе у окошка, поджав ноги, и шил. Куртки шил, штаны, жилетки шил.

Вот как-то сидит портной Ганс на столе, шьёт и слышит — кричат на улице: «Варенье! Сливовое варенье! Кому варенья?»

«Варенье! — подумал портной. — Да ещё сливовое. Это хорошо».


Подумал он так и закричал в окошко:

— Тётка, тётка, иди сюда! Дай-ка мне варенья!

Купил он этого варенья полбаночки, отрезал себе кусок хлеба, намазал его вареньем и стал жилетку дошивать.

«Вот, — думает, — дошью жилетку и варенья поем».

А в комнате у портного Ганса много-много мух было, прямо не сосчитать сколько. Может, тысяча, а может, и две



Gansning xonasida pashsha juda ko‘p ekan. Ularni sanab, sanog‘iga yetib ham bo‘lmas ekan. Balki mingta, balki ikki mingta ham bo‘lgandir. Pashshalar murabboning hidini sezib qolishibdi-yu, nonga yopirilishibdi.

— Pashshalar, pashshalar, — debdi ularga tikuvchi, — sizlarni bu yerga kim chaqirdi? Nega murabboyinga yopihib oldilaring?

Pashshalar bo‘lsa uning gapiga quloq solmay, murabboni yeyaverishibdi. Shunda tikuvchining jahli chiqib ketibdi-yu, latta olib, pashshalarni bir urgan ekan, bir yo‘la yettitasini o‘ldiribdi.

— Men qanday kuchli va botir ekanman-a! — debdi tikuvchi Gans. — Buni butun shahar bilib qo‘yishi kerak. Shahar nima bo‘pti! Butun dunyo bilib qo‘ysin! Men o‘zimga yangi kamar bichib, katta-katta harflar bilan unga: «Chiqqanda jahlim yomon, yettisin etgum gumdon!» deb tikib olaman.

U shunday qilibdi ham. Keyin yangi kamarni taqibdi-da, bir bo‘lak pishloqni yoniga solib, uydan chiqibdi.

тысячи. Почуяли мухи, что вареньем пахнет, и налетели на хлеб.

— Мухи, мухи, — говорит им портной, — вас-то кто сюда звал? Зачем на моё варенье налетели?

А мухи его не слушают и едят варенье. Тут портной рассердился, взял тряпку да как ударит тряпкой по мухам, так семь мух сразу и убил.

— Вот какой я храбрый! — сказал портной Ганс. — Об этом весь город должен узнать. Да что город? Пусть весь мир узнает! Скрою-ка я себе новый пояс и вышью на нём большими буквами: «Когда злой бываю, семерых убиваю».

Так он и сделал. Потом надел на себя новый пояс, сунул в карман кусок творожного сыра на дорогу и вышел из дому.

У самых ворот увидел он птицу, запутавшуюся в кустарнике. Бьётся птица, кричит, а выбраться не может. Поймал Ганс птицу и сунул её в тот же карман, где у него творожный сыр лежал.

Шёл он, шёл и пришёл наконец к высокой горе.



Darvozaning yonginasida butalarga o'ralashib qolgan qushchani ko'rib qolibdi. Qushcha tipirchilab, chiyillarmish-u, chiqishning ilojini qilolmas emish. Gans qushchani tutib olib, uni o'sha pishloq turgan cho'ntakka solib qo'yibdi.

U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, nihoyat baland tog'ning etagiga borib qolibdi. U cho'qqiga chiqib qarasa, tog'da bahaybat bir odam atrofni tomosha qilib o'tirganmish.

— Salom, og'ayni, — debdi unga tikuvchi Gans. — Yur, birga dunyoni kezamiz.

— Qanaqasiga menga og'ayni bo'la qolding! — deb javob beribdi ulkan odam. — Sen nimjon va kichkina bo'lsang, men esa katta va kuchli bo'lsam. Sog'lig'ingda tuyog'ingni shiqillatib qol.

— Mana buni ko'rganmisan? — debdi tikuvchi Gans va ulkan odamga kamarini ko'rsatibdi.

Gansning kamarida esa yirik harflar bilan quyidagilar yozilgan ekan:

«Chiqqanda jahlim yomon, yet-tisin etgum gumdon!».

Ulkan odam o'qib bo'lib, o'ylanib qolibdi: «Kim biladi, balki rostdan ham kuchlidir. Uni sinab ko'rish kerak».

Ulkan odam qo'lga tosh olib, uni shunday qattiq qisibdi-ki, toshdan suv chiqib ketibdi.

— Endi sen shunday qilib ko'r, — debdi ulkan odam.



Забрался на вершину и видит: сидит на горе великан и кругом посматривает.

— Здравствуй, приятель! — говорит ему портной Ганс. — Пойдём вместе со мною по свету странствовать.

— Какой ты мне приятель! — отвечает великан. — Ты слабенький, маленький, а я большой и сильный. Уходи, пока цел.

— А это ты видел? — говорит портной Ганс и показывает великану свой пояс. А на поясе у Ганса вышито крупными буквами: «Когда злой бываю, семерых убиваю».

Прочёл великан и подумал: «Кто его знает, может, он и верно сильный человек. Надо его испытать».


Взял великан в руки камень и так крепко сжал его, что из камня потекла вода.

— А теперь ты попробуй это сделать, — сказал великан.

— Только и всего? — говорит портной. — Ну, для меня это дело пустое.

Вынул он потихоньку из кармана кусок творожного сыра и стиснул в кулаке. Из кулака вода так и полилась на землю.

Удивился великан такой силе, он решил испытать Ганса ещё раз. Поднял с земли камень



— Bor-yo'g'i shumi? — debdi tikuvchi. — E, bu hech ham qiyin emas.

U cho'ntagidan astagina pishloqni olib, uni mushtumida qisibdi. Uning mushtumidan suv oqibdi.

Ulkan odam uning kuchiga hayron qolibdi, lekin Gansni yana bir marta sinab ko'rishga qaror qilibdi. U yerdan tosh olib osmonga otibdi. Shunchalik balandga otibdi-ki, tosh ko'zga ham ko'rinmay ketibdi.

— Qani, — debdi u tikuvchiga, — sen ham shunday qilib ko'r-chi.

— Balandga otar ekansan, — debdi tikuvchi.

— Lekin bari bir sening toshing yerga qaytib tushdi. Mana men otsam, to'ppa-to'g'ri osmonning o'ziga borib tushadi.









и швырнул его в небо. Так далеко закинул, что камня и видно не стало.

— Ну-ка, — говорит он портному, — попробуй и ты так.

— Высоко ты бросаешь, — сказал портной. — А всё же твой камень упал на землю. Вот я брошу, так прямо на небо камень закину.

Сунул он руку в карман, выхватил птицу и швырнул её вверх. Птица взвилась высоко-высоко в небо и улетела.

— Что, приятель, каково? — спрашивает портной Ганс.



— Неплохо, — говорит великан.

— А вот посмотрим теперь, можешь ли ты дерево на плечах снести.

Подвёл он портного к большому срубленному дубу и говорит:

U qo‘lini cho‘ntagiga astagina solibdi-da, qushchani olib yuqoriga uloqtiribdi. Qush juda balandga ko‘tarilibdi-yu, uchib ketibdi.

— Xo‘sh, og‘ayni, qalay? — deb so‘rabdi tikuvchi Gans.

— Chakki erras, — debdi ulkan odam. — Mana endi ko‘raylik-chi, sen daraxtni yelkangga ortib keta olasanmi-yo‘qmi?

U tikuvchini kesilgan kattakon daraxtning yoniga boshlab boribdi-da:

— Qani, agar shunday kuchli bo‘lsang, mana shu daraxtni o‘rmondan olib chiqishimga yordamlashib yubor-chi, — debdi.

— Xo‘p, — deb javob beribdi tikuvchi. O‘zicha esa: «Men kuchsizman-u, aqliman, sen bo‘lsang ahmoqsan-u, kuching ko‘p. Men seni har vaqt aldab keta olaman», deb o‘ylabdi.

U ulkan odamga:

— Sen yelkangga faqat tanasini o‘ngarib ol, men shox-shabbalarining hammasini ko‘tarib boraman. Ulkan odam yelkasiga tanasini ortib, ko‘tarib ketaveribdi. Tikuvchi bo‘lsa sakrab shoxga chiqibdi-yu, unga minib olibdi. Ulkan odam butun boshli daraxtni, yana tikuvchini ham qo‘shib sudrab ketaveribdi. Orqasiga esa o‘girilib qaray olmabdi — unga shoxlar xalal beribdi.

Gans shoxga minib, ashula aytib ketaveribdi:

— Bolalar yo‘l oldi chopishib, chaqqon,
Darvozadan to‘g‘ri polizga tomon.

Ulkan odam daraxtni ancha joygacha sudrab boribdi, nihoyat charchab:



— Если ты такой сильный, так помоги мне вынести это дерево из леса.

— Ладно, — ответил портной, а про себя подумал: «Я слаб, да умён, а ты силен, да глуп. Я всегда тебя обмануть сумею».

И говорит великану:

— Ты себе на плечи только ствол взвали, а я понесу все ветви и сучья. Ведь они потяжелее будут.

Так они и сделали.

Великан взвалил себе на плечи ствол и понёс. А портной вскочил на ветку и уселся на ней верхом. Тащит великан на себе все дерево, да ещё и портного в придачу. А оглянуться назад не может. Ему ветви мешают. Едет портной Ганс верхом на ветке и песенку поёт:

— Как пошли наши ребята
Из ворот на огород...

Долго тащил великан дерево, наконец устал и говорит: — Слушай, портной, я сейчас дерево на землю сброшу. Устал я очень.

— Menga qara, tikuvchi, hozir daraxtni yerga tashlayman. Juda charchadim, — debdi.

Shunda tikuvchi shoxdan sakrab tushibdi-da, ulkan odamning orqasidan kelayotgandek, ikkala qo‘li bilan daraxtga yopishib olibdi.

— Seni qara-yu! — debdi u ulkan odamga. — Kap-katta bo‘lsang ham kuchsiz ekansan.


Ular daraxtni o‘sha yerga tashlab nari ketishibdi. Yurib-yurib nihoyat g‘orga yetishibdi. U yerda gulxan atrofida beshta ulkan odam o‘tirgan ekan, har birining qo‘lida bittadan qovurilgan qo‘y.

— Mana, — debdi Gansni boshlab kelgan ulkan odam, — biz mana shu yerda yashaymiz. Ana u karavotga chiqqin-da, yotib damingni olaver.

Tikuvchi karavotga qarab: «E, bu karavot menga to‘g‘ri kelmaydi. Haddan tashqari katta ekan», deb o‘ylabdi.

U g‘orda qorong‘iroq bir burchakni topib, o‘sha yerda uxlabdi. Kechasi ulkan odam uyg‘onibdi-da, katta temir gurzisi bilan karavotga uribdi.

— Hayriyat, — debdi ulkan odam o‘rtoqlariga, — endi qutuldim-a bu polvondan.



Тут портной соскочил с ветки и ухватился за дерево обеими руками, как будто он всё время шел позади великана.

— Эх, ты, — сказал он великану, — такой большой, а силы, видать, у тебя мало.

Оставили они дерево и пошли дальше.

Они шли, шли и пришли наконец в пещеру. Там у костра сидели пять великанов, и у каждого в руках было по жареному барану.

— Вот, — говорит великан, который привёл Ганса, — тут мы и живём. Забирайся-ка на эту кровать, ложись и отдыхай.

Посмотрел портной на кровать и подумал: «Ну, эта кровать не по мне. Чересчур велика».

Подумал он так, нашел в пещере уголок потемнее и лёг спать. А ночью великан проснулся, взял большой железный лом и ударил с размаху по кровати.

— Ну, — сказал великан своим товарищам, — теперь-то я избавился от этого силача.

Встали утром все шестеро великанов и пошли в лес дрова рубить.





Olti ulkan odam ertalab turib daraxt kesgani ketishibdi. Tikuvchi ham o'rnidan turib yuvinibdi, taranibdi va ularning ketidan izma-iz jo'nabdi.

Ulkan odamlar Gansni o'rmonda ko'rib qolib qo'rqib ketishibdi. «Obbo, — deb o'ylashibdi ular, — biz hatto temir gurzi bilan o'ldirolmagan bo'lsak, endi u hammamizni qirib tashlaydi».

Shu zahoti ulkan odamlar tiraqaylab qochib qolishibdi.

Tikuvchi bo'lsa ularning qilgan ishidan kulib, boshi oqqan tomonga ravona bo'libdi.

U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi va nihoyat qirol saroyi yoniga borib qolibdi. U ko'm-ko'k maysaga cho'zilibdi-da, qotib uxlab qolibdi.

Uxlab yotganida uni qirol xizmatkorlari ko'rib, uning ustiga engashib, kamaridagi yozuvni o'qishibdi: «Chiqqanda jahlim yomon, yettisin etgum gumdon».

— Buni qaranglar-a, biz tomonga qanday pahlavon kelib qolibdi! — deyishibdi ular. — U haqda qirolga xabar berish kerak.



А портной
тоже встал, умылся,
причесался и пошел за
ними следом.

Увидели великаны в лесу Ган-
са и перепугались.

«Ну, — думают, — если мы даже
ломом железным его не убили, так он те-
перь всех нас перебьёт».

И разбежались великаны в разные сто-
роны.

А портной посмеялся над ними и пошёл куда
глаза глядят.

Шёл он, шёл и пришёл наконец к королевс-
кому дворцу. Там у ворот он лёг на зелёную тра-
ву и крепко заснул.

А пока он спал, увидели его королевские слуги,
наклонились над ним и прочли у него на поясе над-
пись: «Когда злой бываю, семерых убиваю».

— Вот так силач к нам пришёл, — сказали
они. — Надо королю о нём доложить.

Побежали королевские слуги к своему королю
и говорят:



Xizmatkorlar qirol huzuriga chopib borib:
— Saroyingiz darvozasi oldida bir pahlavon yotibdi. Xizmatga olinsa yaxshi bo‘lar edi. Urush bo‘lib qolsa yarab qoladi, — deyishibdi.

Qirol quvonib ketibdi.

— To‘g‘ri, — debdi u, — uni bu yoqqa chaqiringlar.

Tikuvchi to‘yib uxlabdi va uyg‘onib, ko‘zlarini ishqalab, qirolga xizmat qilgani chorlanibdi.

U bir kun xizmat qilibdi, ikki kun xizmat qilibdi. Keyin qirol jangchilari bunday deyishibdi:

— Bu pahlavondan biz nima yaxshilik ko‘rardik?

Axir jahli chiqqanda yettitasini o‘ldiradi-ku. Uning kamarida shunday deb yozilgan.

Ular qirol huzuriga borib:

— U bilan birga xizmat qilishni istamaymiz. Agar jahli



— Лежит у ворот твоего дворца силач. Хорошо бы его на службу взять. Если война будет, он нам пригодится.

Король обрадовался.

— Верно, — говорит, — зовите его сюда.

Выспался портной, протёр глаза и пошёл служить королю.

Служит он день, служит другой. И стали королевские воины говорить друг другу:

— Чего нам хорошего ждать от этого силача? Ведь он, когда злой бывает, семерых убивает. Так у него и на поясе написано.



Пошли они к королю и сказали:

— Не хотим служить с ним вместе. Он всех перебьёт, если рассердится. Отпусти нас со службы.



chiqib ketsa, bizning hammamizni qirib tashlaydi. Bizga uyimizga qaytishga javob bering, — deyshibdi.

Qirol ham bunday pahlavonni xizmatga olganidan pushaymon qilib yurgan ekan.

«Bordi-yu, — deb o‘ylabdi u, — bu pahlavonning chindan ham jahli chiqib, askarlarimni qirib yo‘q qilib, meni chopib tashlab, o‘rnimga o‘tirib olsa-chi?.. Undan qanday qutulsa bo‘larkin?»

U tikuvchi Gansni chaqiribdi-da:

— Qirolligimga qarashli changalzor o‘rmonda ikki qaroqchi yashaydi. Ikkalovi shunday zo‘rki, hech kimning ularga yaqin yo‘lashga yuragi dov bermaydi. Senga ularni topib, mag‘lub qilishni buyuraman, yordamga esa yuz suvoriy beraman, — debdi.

— Bo‘pti, — debdi tikuvchi. — Axir chiqqanda jahlim yomon, yettisin



А король уже и сам жалел, что взял такого силача к себе на службу.

«А вдруг, — думал он, — этот силач и в самом деле рассердится, воинов моих перебьёт, меня зарубит и сам на моё место сядет. Как бы от него избавиться?»

Позвал он портного Ганса и говорит:

— В моём королевстве в дремучем лесу живут два разбойника, и оба они такие силачи, что никто к ним близко подойти не смеет. Приказываю тебе найти их и одолеть... А в помощь тебе даю сотню всадников.

— Ладно, — сказал портной. — Я, когда злой бываю, семерых убиваю. А с двумя-то разбойниками я и шутя справлюсь.

И пошёл он в лес. А сто королевских всадников за ним следом поскакали.



etgum gumdon. Ikki qaroqchini esa bir zumda ta'zirini beraman.

U o'rmonga ketibdi. Yuz nafar qirol suvoriysi esa uning izidan ot solibdi.

O'rmon chekkasida tikuvchi suvoriylarga o'girilib:

— Suvoriylar, sizlar shu yerda kutib turinglar, qaroqchilarni bir o'zim boplayman, — debdi.

U o'rmon ichkarisiga kiribdi-da, atrofga alanglay boshlabdi. Qarasa, katta daraxtning tagida ikki qaroqchi yotganmish va shunday xurrak otayotgan emishki, ularning tepasidagi shoxlar tebranib turganmish. Tikuvchi ko'p o'ylanib o'tirmasdan cho'ntaklarini toshga to'lg'azib olib, daraxtga chiqibdi va yuqoridan turib bir qaroqchiga tosh ota boshlabdi. Dam ko'kragiga, dam peshonasiga tekkizaveribdi. Qaroqchi bo'lsa xurrak otaveribdi, hech nimani sezmad.

To'satdan bir tosh qaroqchining burniga tegib ketibdi. Qaroqchi uyg'onib, o'rtog'ining biqiniga turta boshlabdi:

— Hoy, nega uryapsan?

— Senga nima bo'ldi! — debdi narigi qaroqchi. — Men seni urayotganim yo'q. Bu tushingga kirgan bo'lsa kerak.



На опушке леса обернулся портной к всадникам и говорит:

— Вы, всадники, здесь подождите, а я с разбойниками один справлюсь.

Вошёл он в чащу и стал оглядываться кругом. Видит: лежат под большим деревом два разбойника и так храпят во сне, что ветки над ними колышутся.

Портной, недолго думая, набрал полные карманы камней, залез на дерево и стал сверху бросать камни в одного разбойника. То в грудь попадет ему, то в лоб. А разбойник храпит и ничего не слышит.

И вдруг один камень стукнул разбойника по носу. Разбойник проснулся и толкает своего товарища в бок:


— Ты что меня бьёшь?

— Да что ты, — говорит другой разбойник. — Я тебя не бью, тебе, видно, приснилось.

И опять они оба заснули.

Тут портной начал бросать камни в другого разбойника.

Тот тоже проснулся и стал кричать на товарища:





Ular yana yotib uxlashibdi.

Shunda tikuvchi boshqa qaroqchiga tosh ota boshlabdi.

Unisi ham uygʻonib oʻrtogʻiga oʻshqira boshlabdi:

— Nega menga tosh otayapsan? Esingni yeb qoʻydingmi?

U oshnasining peshonasiga bir uribdi! Oshnasi buni uribdi.

Keyin ular bir-biriga tosh, tayoq otishibdi, mushtlashishibdi.

Bir-birini oʻldirmaguncha urishaverishibdi.

Shunda tikuvchi daraxtdan sakrab tushib, oʻrmon chekkasiga chiqibdi-da, suvoriylarga:

— Ish hal boʻldi. Oʻziyam juda yovuz ekan-da bu qaroqchilar! Ular menga tosh ham otishdi, musht ham oʻqtalishdi, lekin menga kuchlari yetarmidi! Axir chiqqanda jahlim yomon, yettisin etgum gumdon! – debdi.

Qirol suvoriylari oʻrmonga kirib qarasalar, yerda ikki qaroqchi qimir etmay yotganmish — ikkalasi ham oʻldirilgan ekan.

Tikuvchi Gans saroyga, qirol huzuriga qaytib boribdi. Qirol boʻlsa makkor ekan. Gansning gaplarini tinglab oʻtirib: «Mayli, qaroqchilarni bir amallab yoʻq qilding, senga shunday

— Ты что в меня камни бросаешь?
С ума сошёл?

Да как ударит своего приятеля по лбу. А тот его. И стали они драться камнями, палками и кулаками.

И до тех пор дрались, пока друг друга насмерть не убили.

Тогда портной соскочил с дерева, вышел на опушку леса и говорит всадникам:

— Дело сделано. Оба убиты.

Ну и злые же эти разбойники — и камнями они в меня швыряли, и кулаками на меня замахивались, да что им со мной поделать? Ведь я, когда злой бываю, семерых убиваю.

Въехали королевские всадники в лес и видят: верно, лежат на земле два разбойника, лежат и не шевелятся — оба убиты.

Вернулся портной Ганс во дворец к королю. А король хитрый был. Выслушал он Ганса и думает: «Ладно, с разбойниками ты справился, а вот сейчас я тебе такую задачу задам, что ты у меня в живых не останешься».





topshiriq berayki, qancha harakat qilganing bilan omon qolmaysan», deb o‘ylabdi.

— Menga qara, — debdi qirol Gansga, — yana o‘rmonga borib, dahshatli yirtqich yakkashoxni tutib keltir.

— Bajoni dil, — debdi tikuvchi Gans, — bu qo‘limdan keladi. Axir, chiqqanda jahlim yomon, yettisin etgum gumdon. Bitta yakkachoxni bir zumda bir yoqlik qilaman.

U bolta va arqon olibdi-da, yana o‘rmonga boribdi.

Tikuvchi Gans yakkashoxni qidirib ko‘p ovora bo‘lmabdi. Qo‘rqinchli, junlari hurpaygan, o‘tkir shoxi qilichday yirtqichning o‘zi uning ro‘parasidan chiqib qolibdi.

Yakkashox tikuvchiga tashlanibdi va unga shoxini sanchib olmoqchi bo‘libdi. Tikuvchi esa o‘zini yo‘g‘on daraxtning orqasiga olibdi. Yakkashox zarb bilan yugurib borib urilib, shoxini daraxtning tanasiga sanchib olibdi. Orqasiga siltanibdi-yu, lekin chiqarib ololmabdi.

— Mana endi mendan qochib qutulib bo‘psan! — deb, tikuvchi yakkashoxning bo‘yniga arqon solibdi, uning shoxini daraxt tanasidan bolta bilan urib chiqaribdi va hayvonni qirol huzuriga arqonlab yetaklab ketibdi.



— Слушай, — говорит Гансу король, — поди-ка, ты опять в лес, излови свирепого зверя-единорога.

— Изволь, — говорит портной Ганс, — это я могу. Ведь я, когда злой бываю, семерых убиваю. Так с одним-то единорогом живо справлюсь.


Взял он с собой топор и верёвку и опять пошёл в лес.


Недолго пришлось портному Гансу искать единорога: зверь сам к нему навстречу выскочил — страшный, шерсть дыбом, рог острый, как меч.

Кинулся на портного единорог и хотел было проткнуть его своим рогом, да портной за дерево спрятался. Единорог с разбегу так и всадил в дерево свой острый рог. Рванулся назад, а вытащить не может.

— Вот теперь-то ты от меня не уйдёшь! — сказал портной, набросил единорогу на шею верёвку, вырубил топором его рог из дерева и повёл зверя на верёвке к королю.

Привел единорога прямо в королевский дворец.





Yakkashoxni to'ppa-to'g'ri
qirol saroyiga yetaklab kiribdi.

Yakkashox bo'lsa qirolni
oltin toj-u qizil chakmonda
ko'rishi bilan pishqirib, xi-
rillabdi. Uning ko'zlariga qon
to'libdi, juni hurpayib, shoxi
xuddi qilichday dikkayib
ketibdi.

Qirol qo'rqib qochibdi.
Askarlari ketidan ergashibdi.
Qirol uzoq-uzoqlarga qochib
ketibdi — shunday uzoqqa
borib qolibdiki, keyin orqa-
siga yo'l topolmabdi.


Tikuvchi bo'lsa oshini
oshab, yoshini yashab, kamzul,
ishton va nimchalarni tikaveribdi.
Kamarni u devorga osib qo'yibdi.
Keyin esa na ulkan odamlarni, na
qaroqchilarni va na yakkashoxlarni
bir umr ko'rmabdi.



А единорог, как только увидел короля в золотой короне и красной мантии, засопел, захрипел. Глаза у него кровью налились, шерсть дыбом, рог как меч торчит. Испугался король и кинулся бежать. И все воины за ним. Далеко убежал король, так далеко, что назад дороги найти не смог.

А портной стал себе спокойно жить да поживать, куртки, штаны и жилеты шить. Пояс свой он на стенку повесил и больше ни великанов, ни разбойников, ни единорогов на своём веку не видал.





OQOYIM VA GULOYIM

Oʻrmon chekkasidagi gʻarib eski kulbada kambagʻal bir beva xotin yashar ekan. Kulbaning oldi bogʻ boʻlib, bogʻda ikki tup atirgul oʻsar ekan. Birida oq gul, ikkinchisida esa qizil gul ochilar ekan. Bevaning xuddi shu gullarga oʻxshagan ikki qizi boʻlar ekan. Birining ismi Oqoyim, ikkinchisniki Guloyim ekan. Ularning ikkalovi ham kamtar, mehribon va odobli qizlar ekan. Faqat Oqoyim singlisidan koʻra muloyim, kamgap ekan. Guloyim esa koʻproq maysazor va dalalarda chopqillab yurishni, gul terishni va sayroqi qushlarni tutishni yaxshi koʻrar ekan. Oqoyim koʻproq uyda, onasi yonida oʻtirar, roʻzgʻor yumushlarida unga koʻmaklashar ekan. Ishdan qoʻli boʻshaganda onasiga ovoz chiqarib kitob oʻqib berar ekan.

Qizchalar bir-birini shunday yaxshi koʻrishar ekan-ki, biror yoqqa borgudek boʻlishsa, maʼkam qoʻl ushlab



БЕЛОСНЕЖКА И КРАСНОЗОРЬКА

На краю леса, в маленькой избушке, одиноко жила бедная вдова. Перед избушкой у неё был сад, а в саду росли два розовых куста. На одном из них цвели белые розы, а на другом — красные. И были у неё две дочки — одна белее белой розы, другая румяней красной. Одну прозвали Белоснежкой, другую — Краснозорькой.

Обе девочки были скромные, добрые, работающие, послушные. Кажется, весь свет обойди — не найдёшь лучше!

Только Белоснежка была тише и ласковей, чем её сестра. Краснозорька любила бегать и прыгать по лугам и полям, собирать цветы, ловить певчих птичек. А Белоснежка охотнее оставалась подле матери: помогала ей по хозяйству или читала что-нибудь вслух, когда делать было нечего.



olisharkan. Oqoyim tez-tez: «Biz hech qachon ajralmaymiz», derkan.

«Umrbod birga bo‘lamiz», deb davom etarkan uning gapini Guloyim.


— Nimangiz bo‘lmasin hamma vaqt birga baham ko‘ringlar, — deb qo‘shimcha qilarkan ona.

Qizlar ko‘pincha o‘rmonga borib meva terishar ekan. Birorta yirtqich ularga ozor bermas, biror mayda hayvon ulardan hurkib qochmas ekan. Quyon ularning qo‘lidan karam yer, kiyik shundoq yonginalarida o‘tlab yurar, bug‘u shoshilmay, bemalol chopib o‘tar, qushlar esa daraxtlarning pastki shoxlariga qo‘nib, ularga sayrab berishar ekan.

Oqoyim bilan Guloyim hujralarini shunday ozoda tutishar ekan-ki, ko‘rgan odamning bahri-dili ochilar ekan. Yozda Guloyim uyni yig‘ishtirar va har kuni ertalab, onasi uyg‘onmasdan avval uning karavoti yoniga bir dasta gul

Сёстры так сильно любили друг дружку, что всюду ходили вместе, взявшись за руки. И если Белоснежка говорила: «Мы никогда не расстанемся», то Краснозорька прибавляла: «До тех пор, пока живы!» А мать заканчивала: «Во всём помогайте друг дружке и всё делите поровну!»

Часто обе сестры уходили вдвоём в дремучий лес собирать спелые дикие фрукты и ягоды. И ни разу ни один хищный зверь не тронул их, ни один маленький зверёк не спрятался от них в страхе. Зайчик смело брал капустный лист из рук сестёр, дикая коза, как домашняя, паслась у них на глазах, олень весело прыгал вокруг, а лесные птицы и не думали улетать от девочек — они сидели на ветках и пели им все песни, какие только знали.





qo‘yar ekan. Bu guldasta har bir atirgul tupidan uzilgan bittadan oq va qizil guldan iborat bo‘lar ekan.

Qishda Oqoyim o‘choqqa o‘t qalar va qozon osar ekan. Qozon misdan ekan-u, lekin xuddi oltin-dek yaltirab turar ekan. Uni shu qadar yaxshilab tozalashar ekan.

Kechqurun bo‘ralab qor yog‘ib turganda ona:

— Oqoyim, bor, eshik-ni berkit! — derkan.

Keyin ular o‘choqqa yaqin o‘tirishar ekan.



Никогда никакой беды не приключилось с ними в лесу. Если, бывало, они замешкаются и ночь застанет их в чаще, они укладывались рядышком на мягкий мох и спокойно засыпали до утра. Мать знала это и нисколько не тревожилась о них.

Белоснежка и Краснозорька так чисто прибирали всегда свой домик, что и заглянуть туда было приятно.

Летом за всем присматривала Краснозорька. Каждое утро, прежде чем просыпалась мать, она ставила возле её постели букет цветов, а в букете непременно было по цветку с каждого розового куста — белая роза и красная.

А зимой в доме хозяйничала Белоснежка. Она разводила в очаге огонь и вешала над огнём котелок на крюке. Котелок был медный, но блестел, как золотой, — так ярко он был начищен.

Вечером, когда за окнами мела метель, мать говорила:



Ona ko‘zoynagini taqar va kitobni ochib, ovoz chiqarib o‘qir ekan, qizlar esa ip yigirib tinglab o‘tirishar ekan.

Kunlardan bir kun ana shunday o‘tirishganida eshikni allakim qoqibdi.

— Tezroq ochgin, Guloyim! Bu boshpana axtarib yurgan yo‘lovchi bo‘lsa kerak, — debdi ona.

Guloyim borib tambani suribdi. U sovqotgan odam kiradi deb o‘ylagan ekan, ayiq ko‘rinibdi va katta qora boshini eshikka suqibdi.

Guloyim baqirib, o‘zini orqaga tashlabdi. Oqoyim esa onasining karavoti ortiga berkinib olibdi.

— Поли, Белоснежка, закрой поплотнее дверь!

И они втроем усаживались перед очагом.

Мать доставала очки, раскрывала большую толстую книгу и принималась читать, а обе девочки сидели за своими прялками, слушали и пряли. Подле них на полу лежал барашек, а позади, на насесте, дремал, спрятав голову под крыло, белый голубок.

Вот как-то раз, когда они сидели так перед огнём и коротали вечер за книгой и прялкой, кто-то робко постучался у дверей, словно просил впустить его.

— Слышишь, Краснозорька? — сказала мать. — Отпори поскорей! Это, наверное, какой-нибудь путник ищет у нас приюта и отдыха.

Краснозорька пошла и отодвинула засов. Она думала, что увидит за дверью усталого человека, застигнутого непогодой.



Но нет, на пороге стоял не человек. Это был медведь, который сразу же просунул в дверь свою чёрную голову.

Краснозорька громко вскрикнула и отскочила назад. Барашек заблеял. Голубок захлопал крыльями. А Белоснежка спряталась в самый дальний угол, за кровать матери.

Медведь посмотрел на них и сказал человеческим голосом:

— Не бойтесь! Я не сделаю вам никакого зла. Я просто очень озяб и хотел бы хоть немного обогреться у вас.

Lekin ayiq birdan tilga kiribdi:

— Qo‘rqmanglar, men sizlarga yomonlik qilmayman. Juda sovqotdim, sizlarnikida birpas isinib olmoqchiman, xolos.

— Voy, sho‘rlik hayvon-ey! — debdi ona. — Mayli, olovning yoniga yota qol. Faqat ehtiyot bo‘l, yana teringni kuydirib olma. — Keyin u: — Oqoyim, Guloyim, chiqaveringlar! Ayiq sizlarga tegmaydi, u beozor ekan! — deb qichqiribdi.

Shunda ikkala qiz ayiqning yoniga boribdi. Ular endi undan qo‘rqishmabdi.

— Qani, bolalar, po‘stinimning qorini sal-pal qoqib qo‘yinglar-chi!

Qizlar cho‘tka keltirib, ayiqning po‘stinini yaxshilab tozalashibdi, u esa olov yoniga cho‘zilib, huzur qilganidan asta g‘o‘ldirabdi.

Hademay qizlar ayiqdan butunlay qo‘rqmay qo‘yishibdi va beso‘naqay mehmon bilan hazil qila boshlashibdi. Ular ayiqning junini



— Ах ты бедный зверь! — сказала мать. — Ложись-ка вот тут, у огня... Только смотри поосторожнее — не подпали как-нибудь ненароком свою шубу.

Потом она позвала девочек:

— Белоснежка! Краснозорька! Идите сюда поскорей! Медведь не сделает вам ничего дурного. Он умный и добрый.

Обе девочки подошли поближе, а за ними и барашек и голубок. И скоро уже никто из них не боялся медведя.

— Дети, — сказал медведь, — почистите-ка немного мою шубу, а то она вся в снегу.

Девочки принесли метёлку, обмели и почистили густой медвежий мех, и медведь растянулся перед огнем, урча от удовольствия.

А Белоснежка и Краснозорька доверчиво примостились возле него и давай тормошить своего неповоротливого гостя.



tortqilashar, u g'oldiray boshlaganda esa sharaqlab kulib yuborishar ekan. Faqat haddan tashqari bezor qilib yuborishganda u:
— Oqoyim! Guloyim!

Bolalar, bu ne sho'xlik?
Qochib ketmasin qalliq, —

der ekan.

Yotar paytda onalari ayiqqa:
— Sen shu yerda, o'choq yonida qolaversang bo'ladi, bu yerda sovuqdan ham, qordan ham nari bo'lasan, — debdi.

Tongda bolalar ayiqni uydan chiqarib yuborishibdi. U qorda lapanglab o'rmon tomonga ketibdi.

Shundan buyon ayiq har oqshom aniq bir vaqtda kelib, o'choq yoniga yotadigan bo'libdi. Qizlarning tortqilashlariga ham ko'nikibdi. Qizlar unga shunday o'rganib qolishibdiki, to qora oshnalari kelmaguncha eshikni berkitmay o'tiradigan bo'lishibdi.

Bahor kelib, hammayoq ko'mko'k maysaga burkanganda bir kuni ayiq Oqoyimga:



Они ерошили его шерсть, ставили ему на спину ноги, толкали то в один бок, то в другой, дразнили ореховыми прутьями. А когда зверь начинал рычать, они звонко смеялись.

Медведь охотно позволял играть с ним и, только когда его уж очень донимали, ворчал:

— Белоснежка! Краснозорька!

Долго ль, дети, до греха?
Вы убьёте жениха.

Когда наступила ночь и пришло время ложиться спать, мать сказала медведю:

— Оставайся-ка тут, перед очагом. Здесь ты, по крайней мере, будешь укрыт от ветра и стужи.

Мохнатый гость остался.

На рассвете девочки отворили дверь, и медведь медленно побрёл в лес по снежным сугробам. Но с той поры каждый вечер в один и тот же час он приходил к ним, ложился перед очагом и позволял обеим сестрам тормошить его сколько им вздумается.

Девочки так привыкли к нему, что даже дверей не закрывали, пока не придет их косматый черный приятель.





— Men endi ketishim kerak. Yoz bo‘yi sizlarning yoningizga kelishning iloji bo‘lmaydi, — debdi.

— Qayoqqa ketyapsan, ayiqjon? — deb so‘rabdi Oqoyim.

— Xazinamni yovuz mitti odamchalardan qo‘riqlagani o‘rmonga borishim zarur.

Qishda yer muzlab qolganda, ular yer ostidan chiqisholmaydi. Qu-

yosh yerni qizitib, yer yumshay boshlaganda

esa mitti odamchalar

yuqoriga chiqib

olishadi, hamma

joyda izg‘ib, o‘g‘-

rilik qilishadi.

Ularning qo‘liga tushgan narsa yer ostiga kirib ketadi. U yerdan olib chiqish esa oson ish emas.

Oqoyim bo‘lajak ayrilichni eshitib juda xafa bo‘libdi.

U ayiqni chiqarib yuborish uchun tambani suribdi. Ayiq tor eshikdan chiqayotganda eshik ilgagiga bir parcha terisi ilinib qolibdi.








И вот наступила весна. Когда всё вокруг зазеленело, медведь сказал Белоснежке:

— Прощай. Я должен уйти от вас, и целое лето мы не увидимся.

— Да куда ж ты идешь, милый медведь?— спросила Белоснежка.

— В лес — охранять свои сокровища от злых карликов, — ответил медведь. — Зимой, когда земля накрепко замерзает, они не могут выкарабкаться и поневоле сидят в своих глубоких норах.



Но сейчас солнце обогрело землю, растопило лед, и они уже, верно, проложили дорогу из своего подземелья на волю, вылезли наружу, всюду шарят и тащат к себе, что приглянется. А уж что попадет к ним в руки и окажется у них в норе, то не скоро выйдет опять на дневной свет.

Oqoyimning nazarida teri ostida oltin yiltillaganday bo'libdi.

Ayiq esa shosha-pisha chiqib, daraxtlar orqasida g'oyib bo'libdi.

Kunlardan bir kun ona qizlarini o'rmonga o'tin terгани yuboribdi.

O'rmon ichkarisida qizlar to'satdan qulagan daraxt yonida o'tlar ichida allanima sakrab yurganini ko'rib qolishibdi-yu, uzoqdan bu nimaligini sira aniqlasholmabdi.

Qizlar yaqinroq borib qarashgan ekan, yuzi qarib, burishib ketgan, uzun oppoq soqolli mitti odamchani ko'rishibdi. Soqolining uchi daraxtning yorig'iga qisilib qolgani uchun u qanday qutulishini bilmay bog'loq kuchukdek dikillab sakrar ekan.

Mitti odam laxcha cho'g'-dek qip-qizil ko'zlarini chaqchaytirganicha, qizlarga:

— Nega qaqqayib turibsizlar? Beriroq kelib, menga yordam bersangiz bo'lmaydimi? — deb o'shqiribdi.



Жалко было Белоснежке расставаться с добрым другом. Она в последний раз отворила ему дверь.

А он, пробираясь мимо неё через порог, зацепился нечаянно за дверной крюк и вырвал кусочек шерсти. И тут Белоснежке показалось, что под косматой медвежьей шкурой блеснуло золото... Но она и глазам своим не поверила.

Медведь опрометью бросился бежать и, прежде чем она успела оглянуться, пропал за деревьями.

Вскоре после того послала мать обеих дочек в лес за хворостом. В чаще девочки набрали на большое дерево, поваленное наземь непогодой. Ещё издали они заметили, что возле ствола в траве что-то суетится и прыгает. Но что это такое — они не могли разобрать.

Сестры подошли поближе и увидели карлика — маленького старичка с морщинистым лицом и длинной белой, как снег, бородой. Кончик его бороды




— Senga nima bo‘ldi o‘zi, odamcha? — deb so‘rabdi Guloyim.


— Voy ovsar o‘r-dag-ey, — deb javob beribdi mitti odam. — Men manavi o‘tindan tarasha yormoqchi edim. Yo‘g‘on g‘o‘lani yondirganda bizning nozik yemishimiz kuyib ketadi. Axir biz ovqatni sizlarchalik ko‘p yemaymiz-da, qo‘rs, ocho-fat xalq! Men ponani qoqib kiritgan edim, hammasi ko‘n-gildagidek bo‘layotgandi. Ammo pona chiqib ketib, yoriq shunday tez yopildiki, oppoq go‘zal soqolimni chiqarib olishga ulgurolmay qoldim! Mana endi, shu yerdan ketolmayap-man. Kulyapsizlarmi? Uf, qanday jir-kanchlisizlar-a!

Qizlar qancha urinishsa ham soqolni chiqarib olisholmabdi.

— Men yugurib borib odamlarni chaqirib kelaman, — debdi Guloyim.

— Aqldan ozibsan, eshakmiya! — deb chinqirib yuboribdi mitti odam. — Menga ikkoving ortiqchalik qilib turibsanlar-u, yana odam chaqirganlaring nimasi? Durustroq biror narsa o‘ylab topolmadilaringmi?





попал в трещину дерева, и малыш прыгал и метался, словно собачонка на верёвочке, но никак не мог вырваться на волю.

Завидев девочек, он выпучил свои красные, светящиеся, как искры, глазёнки и закричал:

— Чего же вы стали? Не можете подойти поближе и помочь?

— Да что ты тут делаешь, старичок? — спросила Краснозорька.

— Глупая любопытная гусыня! — ответил карлик. — Я хотел расколоть дерево, чтобы наготовить себе мелких дровец для кухни. На толстых поленьях пригорают наши нежные, лёгкие кушанья. Ведь мы едим понемножку, а не набиваем себе брюхо, как вы, грубый, жадный народ!.. Я уж было вколотил в дерево клин, и всё шло отлично, да проклятая деревяшка оказалась слишком скользкой и ни с того ни с сего вылетела обратно. Я не успел отскочить, и мою прекрасную белую бороду защемило, словно тисками. Вот она и застряла в трещине, и я, сколько ни бьюсь, не могу вырваться... да вы что смеётесь толстощёкие дурочки? Тьфу, и смотреть-то на вас противно!

Девочки изо всех сил старались помочь карлику, но высвободить его бороду им никак не удавалось: уж очень крепко зажало её в расщелине.

— Я побегу позову людей, — сказала Краснозорька.

— Пустые бараньи головы! — заскрипел карлик. — Очень нужно звать сюда людей! Хватит с меня и вас двоих. Неужто вы не можете придумать лучшего?

— Потерпи немножко, — сказала Белоснежка. — Сейчас я тебя выручу.

— Bir oz sabr qil, — debdi Oqoyim, — men topdim nima qilishni.

U cho‘ntagidan qaychi olibdi-da, mitti odamning soqolini daraxtga qisilgan joyidan qirqib tashlabdi.

Mitti odam o‘zini erkin his qilishi bilanoq daraxt tomirlari orasida yotgan oltin to‘la xaltasini olib, yelkasiga tashlabdi-da, ketayotib:

— Voy, qo‘pollar-ey! Shunday go‘zal soqolning bir parchasini qirqib o‘tirsaya! Ux, iloyo sizlarni!.. — deb to‘ng‘ilabdi.

Yana bir kuni Oqoyim bilan Guloyim baliq tutgani borishibdi. Ariq bo‘yiga borgach, suvga yaqin joyda bahaybat chigirtkadek bir narsa xuddi o‘zini suvga tashlamoqchi bo‘lgandek sakrab yurganini ko‘rishibdi.

Qizlar yaqinroq borib qarashsa — o‘sha o‘rmondagi mitti odam.



Она вытащила из кармана маленькие ножницы и отстригла ему кончик бороды.

Чуть только карлик почувствовал себя на свободе, он схватил запряганный меж корней дерева и доверху набитый золотом мешок и крепко завязал его, ворча под нос:



— Неотесанный народ!.. Отхватили кусок моей роскошной бороды... Чтоб вам пусто было!

С этими словами он взвалил мешок на плечи и ушёл, даже не поглядев на девочек.

Через несколько дней после того Белоснежка и Красноторька вздумали наловить к обеду немного рыбы. Придя на берег ручья, они увидели какого-то большого кузнечика, который прыгал около самой воды, словно хотел кинуться в ручей.

Они подбежали поближе и узнали карлика, которого недавно видели в лесу.

— Да что с тобой? — спросила Красноторька. — Ты, кажется, собираешься прыгнуть в воду?

— Я не такой дурак! — крикнул в ответ карлик. — Неужто вы сами не видите, что это проклятая рыба тянет меня за собой?

Оказалось, что карлик сидел на берегу и удил рыбу. На беду, ветер вздумал поиграть его длинной бородой и намотал её на леску удочки. А тут, словно нарочно, клюнула большая рыба.

У бедняги не хватило силёнок вытащить её на берег. Рыба одолела рыболова и потянула его за собой в воду. Он цеплялся за травинки и соломинки, но никак не мог удержаться. Рыба металась в воде и таскала

— Senga nima bo‘ldi? — deb so‘rabdi Guloyim. — Nahotki o‘zingni suvga tashlamoqchi bo‘lsang?

— Men unaqa ahmoq emasman! — deb baqirib beribdi mittivoy. — La‘nati baliq meni tortib ketayotganini ko‘rmayapsizlarmi?

Ma‘lum bo‘lishicha, mitti odam qirg‘oqda o‘tirib, baliq ovlayotgan chog‘ shamol uning soqolini o‘ynoqlagan ekan, soqoli qarmoq ipiga o‘ralashib qolibdi. Qarmoqqa ilingan baliq esa uni qirg‘oq bo‘ylab sudrab borar va hash-pash deguncha uni suvga butunlay tortib ketishi aniq edi.

Qizlar vaqtida yetib kelishgan ekan. Ular mitti odamni ushlab, uning soqolini ipdan ajratib olishga urinib ko‘rishibdi. Lekin urinishlari behuda ketibdi: soqol bilan qarmoq ipi juda qattiq chirmashib ketgan ekan.

Ular qarmoqqa o‘ralashib qolgan bir tutam soqolni qirqib tashlashga majbur bo‘lishibdi.

Buni ko‘rib mittivoy ularga baqiribdi:

— Odamni mazax qilishni qayerdan o‘rgandinglar, baqako‘z tentak qizlar? Soqolimni to‘mtiq qilib qo‘yganlaring yetmaganday, endi uning eng yaxshi qismini qirqib tashladinglar-mi? O‘zimiznikilarning ko‘ziga ko‘rina olmaydigan bo‘lib qoldim! Yugurib ketayotganlaringda kovushlaringni charmi uzilib tushgurlar!

Shunday deb, u qamishlar orasiga yashirib qo‘ygan marvarid to‘la qopini



его за собой по берегу то вправо, то влево... Ещё немного, и она утащила бы его на дно.

Девочки подросли как раз вовремя. Крепко ухватив карлика, они попытались распутать его бороду. Да где там! Борода и леска так тесно переплелись, что думать об этом было нечего.

Оставалось одно: снова достать из кармана маленькие ножницы и отстричь ещё клочок бороды.

Чуть только щёлкнули ножницы, карлик закричал не своим голосом:

— Да где это видано, лягушки вы лупоглазые, так уродовать человека! Мало того, что давеча вы отхватили у меня конец бороды, теперь вы обкорнали её лучшую часть. Да как я в таком виде своим покажусь! Ах, чтоб на бегу подошвы потерять!..

Тут он схватил мешок с жемчугом, спрятанный в камышах, и, не сказав больше ни слова, пропал за камнем.

Прошло ещё дня три, и вот мать послала обеих дочек в город купить иголок, шнурков и лент.

Дорога шла через пустынную равнину, по которой тут и там были разбросаны огромные глыбы камней.



Девочки заметили, что в небе парит большая птица. Медленно кружась, она опускалась всё ниже и ниже и наконец села неподалёку от девочек, возле одной из скал.

В то же мгновение они услышали чей-то пронзительный жалобный крик.

olibdi-da, ortiq lom-mim demay, harsang tosh orqasida g'oyib bo'libdi.


Shu voqeadan ko'p o'tmay ona Oqoyim bilan Guloyimni ip-igna, tasma va lenta sotib olgani shaharga jo'natibdi. Qizlar o'tloqdan ketishayotgan ekan. To'satdan ular tepalarida sekin aylanib, borgan sari pastlayotgan kattakon qushni ko'rib qolishibdi. Nihoyat qush ulardan sal nariroqdagi xarsangtosh yoniga qo'nibdi. Keyin qizlar ayanchli chinqiriqni eshitishibdi. Ular chopib borishibdi-yu, burgut ularning eski tanishi — soqoli oq mitti odamni changallab ko'tarib ketmoqchi bo'layotganini ko'rib qolishibdi. Rahmdil qizlar darrov odamchaga yopishishibdi va burgut bilan to u o'ljasini tashlab ketmaguncha olishaverishibdi.

Qo'rquvdan sal o'ziga kelib olgach mittivoy xirillagan ovoz bilan baqiribdi:

— Ehtiyot bo'lsalaring bo'lasmidi? Kamzulimni shunday yirtib yubordilaring-ki, endi uni kiyib bo'lmaydi. Voy beo'xshov, qo'pol qizlar-ey!

Keyin u asl toshlar solingan qopni olib, uni qoya ostiga — o'zining yer ostidagi uyiga sudrab ketibdi.

Qizlar yo'lida davom etishibdi. Ular shaharda zarur narsalarning hammasini sotib olgach, xuddi o'sha maysazordan uyga qaytishibdi va yana mitti odamni ko'rib qolishibdi. U bemahalda bu yo'ldan biror kimsa o'tishini o'ylamay, qimmatbaho bisotini tekis joyga yoyib



Сёстры бросились на помощь и с ужасом увидели, что в когти орла попал их старый знакомый — седобородый карлик. Птица расправила крылья и уже собиралась унести его. Девочки изо всех сил ухватились за человечка и до тех пор дергали и тянули его к себе, пока птица не выпустила свою добычу.

Едва карлик опомнился от испуга, как закричал своим скрипучим, визгливым голоском:

— Неужто нельзя было обойтись со мной как-нибудь поосторожней? Вы в клочья разорвали мой кафтанчик из такого тонкого сукна!.. Эх вы, неуклюжие, неповоротливые девчонки!

Он поднял мешок, на этот раз набитый драгоценными камнями, и юркнул в какую-то нору под скалой.

А девочки, ничуть не удивившись, пошли дальше: они уже привыкли к его неблагодарности.

Вечером, окончив в городе свои дела, сестры возвращались той же дорогой и опять неожиданно увидели карлика.

Выбрав чистое, ровное местечко, он вытряхнул из своего мешка драгоценные камни и разбирал их, не думая, что кто-нибудь так поздно пойдёт мимо скал.

В лучах заходящего солнца блестящие камешки так чудесно мерцали, переливаясь всеми цветами радуги, что сестры невольно остановились и залюбовались.

Карлик поднял голову и заметил девочек.




qo‘ygan ekan. Botib borayotgan quyoshning nuri yaltiroq toshlarga tushib, shunday ajoyib jilovlanar ekan-ki, qizlar beixtiyor to‘xtab, tomosha qila boshlashibdi.

— Bu yerda nima qilib anqayib turibsizlar? — deb baqiribdi mitti odam va uning kulga o‘xshagan rangsiz yuzi qip-qizarib ketibdi.

U qizlarni yana koyimoqchi bo‘lib turgan ekan, lekin shu payt qattiq o‘kirish eshitilibdi-yu, o‘rmondan qora ayiq yugurib chiqibdi.

Qo‘rqib ketgan mittivoy sapchib o‘rnidan turibdi, lekin makoniga kirib ketolmabdi. U qo‘rquvdan dag‘-dag‘ qaltirab, yolvoribdi:

— Mehribon janob ayiq, shafqat qiling menga! Xazinamning hammasini sizga beraman. Bular qanday ajoyib toshlar ekaniga bir qarang! Mening hayotimni saqlab qolsangiz, bas! Sizga nimjongina mitti odamchanning nima



— Ну чего стали, разини? — закричал он, и его пельно-серое лицо побагровело от злости. — Что вам тут надо?..

Он открыл рот, чтобы выкрикнуть ещё какое-то ругательство, но тут послышалось грозное рычание, и большой чёрный медведь шаром выкатился из леса.


Карлик в страхе отскочил в сторону, но улизнуть в свою подземную нору ему не удалось: медведь уже был в двух шагах от него.

Тогда, дрожа от ужаса, он запищал:

— Дорогой господин медведь, пощадите меня! Я отдам вам все свои сокровища!

Взгляните хоть на те прекрасные камешки, что лежат перед вами... Только подарите мне жизнь! Ну на что я вам, такой маленький и шупленький? Вы даже не почувствуете меня на зубах. Возьмите лучше этих девчонок! Вот это будет для вас лакомный кусочек. Вы же сами видите, что они жирнее молодых перепёлок. Съешьте их обеих на здоровье!..

Но медведь и ухом не повел, как будто не слышал, что говорит ему злой карлик. Он только ударил его разок своей тяжёлой лапой, и карлик больше не



keragi bor? Hatto tishlaringizga ham ilinmayman. Undan ko'ra mana bu uyatsiz qizlarni ola qoling — bular siz uchun yog'liq nasiba. Osh bo'lsin!

Lekin ayiq uning gaplariga quloq solmabdi. Panjasi bilan yovuz mitti mahluqni bir urib o'ldirib qo'yibdi.

Qizlar qochib qolishibdi. Lekin ayiq ularga:

— Oqoyim, Guloyim, to'xtanglar, men sizlar bilan ketaman! — deb qichqiribdi.


Ular uning ovozini tanib to'xtashibdi. Ayiq qizlarning yoniga borganda esa birdan ustidan ayiq po'sti shilinib tushibdi-yu, ularning qarshisida oltin libosli go'zal yigit paydo bo'libdi.

— Men qirolning o'g'liman, — debdi u. — Xazinamni o'g'irlab ketgan mitti odam meni ayiqqa aylantirib qo'ygan va to uning kuni bitmaguncha o'rmonda yurishim kerak edi. Endi u tegishli jazosini oldi. Men sizlarning yaxshiliklaringizni hech qachon unutmaman. Endi biz doimo birga bo'lamiz. Men Oqoyimga uylanaman, ukam esa Guloyimni oladi.

Ko'p o'tmay Oqoyim shahzodaga, Guloyim uning ukasiga turmushga chiqishibdi.

Rahmdil ona esa saroyga ko'chib o'tib, qizlari yonida ko'p yillar farovon yashab, uzoq umr ko'ribdi. Ikkala gulni esa u ko'chirib olib borib, o'z derazasi tagiga ekib qo'ygan ekan.

Har yili deraza tagidagi butalarda ajoyib oq va qizil atirgullar ochilaveribdi.



шевельнулся. Девочки очень испугались и бросились было бежать, но медведь крикнул им вслед:

— Белоснежка, Краснозорька, не бойтесь, подождите! И я с вами!

Тут они узнали голос своего старого приятеля и остановились. Когда же медведь поравнялся с ними, толстая медвежья шкура вдруг свалилась с него, и они увидели перед собой прекрасного юношу, с ног до головы одетого в золото.


— Я королевич, — сказал юноша. — Этот злой карлик похитил мои сокровища, а меня самого превратил в медведя. Диким зверем должен я был скитаться по лесным дебрям до тех пор, пока его смерть не освободит меня. И вот наконец он наказан поделом, а я опять стал человеком. Но я никогда не забуду, как вы пожалели меня, когда я был ещё в звериной шкуре. Больше мы с вами не расстанемся. Пусть Белоснежка станет моей женой, а Краснозорька — женой моего брата.

Так и случилось. Когда пришло время, королевич женился на Белоснежке, а его брат — на Краснозорьке.

Драгоценные сокровища, унесённые карликом в подземные пещеры, снова засверкали на солнце.

Добрая вдова ещё долгие годы жила у своих дочерей спокойно и счастливо. Оба розовых куста она взяла с собою. Они росли под её окном. И каждый год расцветали на них чудесные розы — белые и красные.





UCH AKA-UKA

Qadim zamonlarda bir kishi uch o'g'li bilan yashagan ekan. O'g'illar ulg'ayib, bir-biridan zo'r, bahodir yigitlar bo'libdi. Kunlardan bir kun ota ularga:

— Bolalarim, dunyoni kezib, odamlar bilan tanishinglar va biror hunar o'rganinglar. Qay biringiz yaxshi hunarmand bo'lib qaytsangiz, uyga o'sha egalik qiladi, — debdi.

Aka-ukalar safarga chiqib ketishibdi. Uch yil begona o'lkalarda bo'lishibdi. Uch yildan keyin esa hammalari bir kunda uyga qaytishibdi.

— Assalomu alaykum, ota, — deyishibdi ular.

— Vaalaykum assalom, bolalarim, — debdi ota. — Xo'sh, biror narsa o'rgandilaringmi?

— Ha, — deb javob berishibdi o'g'illar, — o'rgandik.

— Men, — debdi kenja o'g'il, — soqol olishni o'rgandim.



ТРИ БРАТА

Много лет тому назад жил на свете отец с тремя сыновьями.

Выросли сыновья молодцами, один другого лучше.

Вот и говорит им отец:

— Ступайте, дети, по белу свету странствовать, людей посмотрите и какому-нибудь делу научитесь. Тому из вас, кто самым лучшим мастером вернётся, я свой дом оставлю.

Пошли братья странствовать. Три года бродили они по чужим краям, а через три года вернулись все в один день домой к отцу.

— Здравствуй, отец, — говорят они.

— Здравствуйте, дети, — отвечает отец. — Ну что, научились чему-нибудь?

— Да, — говорят, — научились.

— Men, — debdi o‘rtancha o‘g‘il, — taqa qoqishni o‘rgandim.

— Men bo‘lsam, — debdi to‘ng‘ich o‘g‘il, — qilichbozlik qilishni o‘rgandim.

— Barakallo, — debdi ota. — Soqol olishga, taqa qoqishga, qilichbozlik qilishga mohirmisizlaryo‘qmi, ko‘rmoqchiman.

Shu payt ekinzordan quyon yugurib ketayotgan ekan.

— Ana! — deb qichqirib yuboribdi soqol olishni o‘rgangan kenja o‘g‘il. — Menga xuddi shu kerak edi!

U tog‘oracha va sovvunni olib, suvni ko‘pirtirib, quyonga yetib olibdi. Yugurib ketayotgan quyonning tumshug‘iga sovvun surtibdi va ikkala lunjini qirib qo‘yibdi.

Yana qanday boplab qiribdi deng! Biror joyini kesmabdi ham, biror tukini qoldirmabdi ham.



— Чему же вы, дети, научились?

— Я, — говорит младший сын, — брить научился.

— Я, — говорит средний сын, — ковать научился.

— А я, — сказал старший сын, — фехтовать научился.

— Ну и хорошо, говорит отец, — Хотел бы я посмотреть, ловко ли вы умеете брить, ковать и фехтовать.

А в это время по полю бежал заяц.

— Эй! — закричал младший сын, который брить научился. — Тебя-то мне и надо!

Схватил он тазик и мыло, взбил кисточкой пену, а потом догнал зайца, на бегу намылил ему мордочку и выбрил обе щёки.

Да как чисто выбрил! Ни разу не порезал и ни одного волоска не оставил.

— Хорошая работа, — сказал отец. — Ловко бреешь!

И только он это проговорил, как на дороге показалась карета.



— Yaxshi! — debdi ota. — Soqol olishga mohir ekansan!
U shunday deyishi bilan yo'lda izvosh ko'rinibdi.

— Qani, — debdi taqa qoqishni
o'rgangan o'rtancha o'g'il, — mening
hunarimni ham bir ko'ring, ota!

O'rtancha o'g'il izvosh ketidan
yugurib, uni quvib yetib, yeldek
uchib borayotgan otning to'
rttala taqasini olib, yo'l-yo'lakay
yangisini qoqibdi.

— Chaqqon ishlading! —
debdi ota. — Mohirlikda
ukangdan qolishmaysan.

Shunda to'ng'ich o'g'il
ham:

— Ijzat bering, ota,
men ham o'z hunarimni
ko'rsatay! — debdi.

— Mayli, — debdi
ota, — ko'rsat.

Xuddi shu vaqtda
yomg'ir shivalay bosh-
labdi.

To'ng'ich o'g'il qilichini
olibdi-da, uni boshi uzra aylantira

— А ну-ка, — говорит средний сын, который ковать научился, — посмотри отец, и на моё уменье!

Побежал средний сын за каретой, догнал её, оторвал у лошади на всём скаку все четыре подковы и тут же на всем скаку подковал её сызнова.

— Отличная работа! — сказал отец. — Не хуже, чем у твоего брата.

Тут заговорил старший сын:

— Позволь отец, и мне показать своё уменье!



— Что ж, — говорит отец, — покажи.

А как раз в это время пошёл дождь.

Взял старший сын свою шпагу да как начал вертеть


ketibdi! Shunday tez aylantiribdi, ustiga biror tomchi tushmabdi. Yomg'ir selga aylanib, sharros quyaveribdi, to'ng'ich o'g'il bo'lsa, qilichini aylantirib, panada turgandek qup-quruqligicha qolaveribdi. Yomg'ir tomchilarini qilichi bilan urib qaytaraveribdi.

Ota buni ko'rib taajjubda qolibdi va bolalariga:

— Hammangiz ham mohir usta bo'libsiz —
— uyni qay biringizga berishni bilmay qoldim.

Uchovingiz birga yashayvering, — debdi.

O'g'illari rozi bo'lishibdi, o'shandan
beri uch aka-uka birga yashasharmish.




ею у себя над головой! Так быстро вертит, что ни одна капля на него не падает. Дождь льёт всё сильнее. Хлещет как из ведра, а старший сын только вертит шпагой отбивает!

Увидел это отец, удивился и сказал детям:

— Все вы искусные мастера — не знаю я, кому из вас дом оставить. Живите все вместе.

Согласились с ним сыновья да так с тех пор вместе и живут.





BO'RON KAMPIR

Bir bevaning ikki qizi bo'lgan ekan: biri o'zining qizi, ikkinchisi o'gay ekan. O'zining qizi yalqov va injiq, o'gay qizi esa ishchan va yuvosh ekan. Lekin ona o'gay qizni yomon ko'rar va unga eng og'ir ishlarni buyurar ekan. Bechora qiz kun bo'yi quduq yonida o'tirib ip yigirar ekan. U shunchalik ko'p ip yigirar ekanki, hatto barmoqlari chaqa bo'lib ketgan ekan.

Bir safar qiz urchug'iga qon tekkanini ko'rib qolibdi. Uni yuvib tashlamoqchi bo'lib, quduq ustiga engashibdi. Lekin urchuq qo'lidan sirg'alib suvga tushib ketibdi. Qizcha qo'rqib ketib ho'ngrab yig'lab yuboribdi va o'gay onasi oldiga yugurib borib nima bo'lganini aytibdi.

— Xo'sh, tushirib yuborishni bilibsanmi, olib chiqishni ham uddasidan chiq, — debdi o'gay ona. — Urchuqsiz uyga qaytma. Qiz nima qilishni, urchuqni qanday olishni bilmabdi.



ГОСПОЖА МЕТЕЛИЦА

Была у одной вдовы дочь, была у неё ещё и падчерица. Падчерица прилежная, красивая, а дочка и лицом нехороша, и лентяйка страшная. Дочку свою вдова очень любила и всё ей прощала, а падчерицу заставляла много работать и кормила очень плохо.

Каждое утро должна была падчерица садиться у колодца и прясть пряжу. И столько ей нужно было спрядь, что часто даже кровь выступала у неё на пальцах.

Однажды сидела она так, пряла и запачкала кровью веретено. Наклонилась девушка к колодцу, чтобы обмыть веретено, и вдруг выскользнуло у неё веретено из рук и упало в колодец.

Заплакала падчерица и побежала домой к мачехе рассказать о своей беде.

U quduq yoniga boribdi-da, alamdand o'zini suvga tashlabdi. Uning boshi aylanib, qo'rqqanidan ko'zini chirt yumib olibdi. Ko'zini qayta ochganida esa, u o'zini ajoyib ko'm-ko'k o'tloqda ko'ribdi. Atrofdagullar chaman bo'lib ochilgan, quyosh charaqlab turgan ekan.


Qiz shu o'tloqdan ketaveribdi. Bir vaqt qarasa, oldidatandir turganmish, ichi to'la non emish.

— Qizcha, qizcha, bizni uzib ol, bo'lmasa kuyib ketamiz! – deb qichqiribdi nonlar.

Qiz tandir yoniga borib, hamma nonlarni birin-ketin uzib olibdi.

Qiz nariroqqa borsa, ro'parasida mevalari g'arq pishgan olma daraxti turganmish.

— Qizcha, qizcha, meni silkit, mevalarim allaqachonlar pishib yetilgan! — deb shivirlabdi unga daraxt.



— Ты его уронила, ты его и доставай, — сказала мачеха сердито. — Да смотри, без веретена не возвращайся.

Пошла девушка обратно к колодцу и с горя взяла да и бросилась в воду. Бросилась в воду и сразу сознание потеряла.

А когда очнулась, увидела она, что лежит на зелёной лужайке, с неба солнце светит, а на лужайке цветы растут.

Пошла девушка по лужайке, смотрит: стоит на лужайке печь, а в печи хлеба пекутся. Хлебы крикнули ей:

— Ах, вынь нас, девушка, из печи поскорее! Ах, вынь поскорее! Мы уже спеклись! А не то мы скоро совсем сгорим!


Взяла девушка лопату и вынула хлеба из печи.



Qiz uni silkita boshlabdi, olmalar duvillab yerga to'kilibdi. U shoxlarda bitta ham olma qolmaguncha silkitaveribdi. Keyin hamma olmalarni bir yerga to'plab qo'yibdi-da, nari ketibdi.

Yurib-yurib u kichkina uychaga duch kelibdi. Uychadan bir kampir chiqibdi. Kampirning tishlari shunaqayam katta ekan-ki, qiz ko'rib, qo'rqib ketibdi. U qochib ketmoqchi bo'lgan ekan, kampir unga:

— Qo'rqma, shirin qiz! Undan ko'ra meningda qol. Uy ishlarida menga ko'maklash, — debdi. — Agar yaxshi ishlasang, seni sahovat bilan mukofotlayman. Faqat par to'shagimni shunday qoqishing kerakki, parlari har tomonga to'zib ketsin. To'shagimdan parlari uchganda yer yuzida qor yog'adi. Men axir Bo'ron kampirman, — debdi.




Потом пошла она дальше и пришла к яблоне. А на яблоне было много спелых яблок. Яблоня крикнула ей:

— Ах, потряси меня, девушка, потряси! Яблоки давно уже поспели!

Стала девушка трясти дерево. Яблоки дождём на землю посыпались. И до тех пор трясла она яблоню, пока не осталось на ней ни одного яблока.

Сложила девушка яблоки в кучу и пошла дальше. И вот наконец пришла она к избушке. В окно избушки выглянула старуха. Из рта у неё торчали огромные белые зубы. Увидела девушка старуху, испугалась и хотела бежать, но старуха крикнула ей:

— Чего ты испугалась, милая? Оставайся-ка лучше у меня. Будешь хорошо работать, и тебе хорошо будет. Ты мне только пос-



Qiz kampirning muloyimligini ko'rib, unikida qolibdi.

U Bo'ron kampirning aytganidek qilishga urinib, par to'shakni shunday qoqar ekanki, parlar to'zib, qor uchqunlaridek butun atrofni tutib ketar ekan. Kampir ishchan qizni yaxshi ko'rib qolib, doim unga mehribonlik ko'rsatadigan bo'libdi.


Qiz Bo'ron kampirni- kida o'z uyidagidan yaxshi yashabdi.



тель стели получше да перину и подушки взбивай посильнее, чтобы перья во все стороны летели. Когда от моей перины перья летят, на земле снег идет. Знаешь, кто я? Я — сама госпожа Метелица.

— Что же, — сказала девушка, — я согласна поступить к вам на службу.

Вот и осталась она работать у старухи. Девушка она была хорошая, примерная и делала всё, что ей старуха приказывала.



Перину и подушки она так сильно взбивала, что перья, словно хлопья снега, летели во все стороны.

Хорошо жилось девушке у Метелицы. Никогда её Метелица не ругала, а кормила всегда сытно и вкусно.

Lekin bir muncha vaqt yashagach, qiz zerika boshlabdi. Avvaliga uning o'zi ham nega bunaqa bo'layotganiga tushunmabdi.

Lekin keyin uyini sog'inib qolganini sezibdi.

Shunda u Bo'ron kampirning oldiga borib:

— Siznikida juda yaxshi yashadim, momojon, lekin uydagilarni juda sog'indim! Uyga ketsam maylimi? — debdi.

— Uyingni sog'inganing yaxshi: demak, ko'ngling oq ekan, — debdi Bo'ron kampir. — Menga yaxshi ko'maklashganing evaziga yuqoriga seni o'zim kuzatib qo'yaman.

U qizning qo'lidan ushlab, katta darvoza oldiga olib boribdi.

Darvoza lang ochilib, qizcha darvoza tagidan o'tib ketayotganda uning ustiga oltin yomg'ir yog'ib, qizning hamma yog'i oltinga belanibdi.



И всё-таки скоро начала девушка скучать. Сначала она и сама понять не могла, от чего скучает, — ведь ей тут в тысячу раз лучше, чем дома, живётся, а потом поняла, что скучает она именно по родному дому. Как там ни плохо было, а всё-таки она очень к нему привыкла.

Вот раз и говорит девушка старухе:

— Я очень стосковалась по дому. Как мне у вас ни хорошо, а всё-таки не могу я здесь больше оставаться. Мне очень хочется родных увидеть.

Выслушала её Метелица и сказала:

— Мне нравится, что ты своих родных не забываешь. Ты хорошо у меня поработала. За это я тебе сама покажу дорогу домой.

Взяла она девушку за руку и привела к большим воротам. Ворота раскрылись, и когда девушка проходила под ними, по-



— Bu senga halol mehnating uchun, — debdi Bo‘ron kampir, keyin qizga urchug‘ini beribdi.

Darvoza yopilib, qiz yer yuzida, o‘z uyi yonida paydo bo‘libdi.

Darvoza ustida xo‘roz o‘tirgan ekan. U qizni ko‘rib qolib qichqiribdi:

— Qu-qu-qu-qu! Ey, xaloyiq, boq, Oltinga o‘ralib kelar qizaloq!

Ona bilan qizi o‘gay qizning hammayog‘i oltinligini ko‘rib, mehribonlik bilan kutib olishibdi, keyin asta surishtira boshlashibdi. Qiz boshidan nimalar o‘tgan bo‘lsa, hammasini so‘zlab beribdi.

Endi o‘gay ona o‘zining yalqov qizi ham boyib ketishini istab qolibdi. U yalqov qizga urchuq tutqazib, quduq yoniga yuboribdi. Yalqov qiz barmog‘ini ataylab na‘-matak tikani bilan qonatib, urchuqqa qon chaplabdi-da, uni quduqqa otibdi. Ketidan o‘zini tashlabdi. U ham opasi singari ko‘m-



сыпалось на неё сверху золото. Так и вышла она из ворот, вся золотом обсыпанная.

— Это тебе в награду за твоё старание, — сказала Метелица и дала ей веретено, то самое, которое в колодец упало.

Потом ворота закрылись, и девушка снова очутилась наверху, на земле. Скоро пришла она к мачехиному дому. В это время петух, сидевший на воротах, запел:




— Ку-ка-ре-ку, девушка пришла!
Много золота в дом принесла!

Увидели мачеха с дочкой, что принесла падчерица с собой много золота, и встретили её ласково. Даже ругать не стали за долгую отлучку.

Рассказала им девушка обо всём, что с нею случилось, и захотелось мачехе, чтобы её дочка тоже стала богатой, чтобы она тоже много золота в дом принесла.

Посадила она свою дочь прясть у колодца. Села ленивая дочка у колодца, но прясть не стала. Только расцарапала себе



ko'k o'tloqqa tushib qolibdi va so'qmoqdan yurib ketibdi. U tandirga yetganda nonlar unga qichqirishibdi:


— Qizcha, qizcha, bizni uzib ol, bo'lmasa kuyib ketamiz!

— Qo'limni iflos qilish zarur kelibdi-da! — deb javob beribdi yalqov qiz va o'tib ketaveribdi.

U olma daraxti yonidan o'tib borayotganida olmalar unga qarab qichqirishibdi:

— Qizcha, qizcha, bizni silkitib qo'y, biz allaqachon pishib bo'lganmiz!

— Yo'q, qoqmayman! Boshimga tushib g'urra qilib qo'yasizlar, — deb javob beribdi yalqov qiz va o'tib ketaveribdi.



палец терновником до крови, вымазала веретено кровью, бросила его в колодец и сама за ним в воду прыгнула.

И вот очутилась она на той же зелёной лужайке, где росли красивые цветы. Пошла она по тропинке и скоро пришла к печи, где пеклись хлебы.


— Ах, — крикнули ей хлебы, — вынь нас из печки! Вынь поскорее! Мы спеклись уже! Мы скоро сгорим!

— Как бы не так! — ответила лентяйка. — Стану я из-за вас пачкаться, — и пошла дальше.

Потом она подошла к яблоне, яблоня крикнула ей:

— Ах, потряси меня, девушка, потряси меня! Яблоки уже давно спели!





Ishyoqmas qiz Bo‘ron kampirnikiga kelibdi, uning uzun-uzun tishlaridan qo‘rqmabdi ham. Axir opasi unga kampirning sira ham yovuz emasligini so‘zlab bergan ekan-da. Yalqov qiz ham Bo‘ron kampirnikida qolibdi.

Birinchi kuni u o‘zining erinchoqligini bir amallab bildirmabdi va kampir nima buyursa bajaribdi. Judayam sovg‘a olgisi kelgan ekan-da!

Lekin ikkinchi kun dangasaligi tutibdi, uchinchi kuni esa hatto o‘rnidan turishni ham istamabdi.

U Bo‘ron kampirning par to‘shagi haqida sira qayg‘urmas, uni nomigagina qoqar, bitta ham par uchib chiqmas ekan. Bo‘ron kampirga dangasa qiz sira yoqmabdi.

— Yur, uyingga eltib qo‘yay, — debdi u bir-ikki kundan keyin yalqov qizga.

Yalqov qiz quvonib ketib: «Mana, nihoyat mening ustimga ham oltin yomg‘ir yog‘adigan bo‘ldi!» deb o‘ylabdi.

— Как же, как же, — отвечала она, — того и гляди, если я начну тебя трясти, какое-нибудь яблоко мне на голову свалится да шишку набьёт!

Наконец подошла лентяйка к дому госпожи Метелицы. Она совсем не испугалась Метелицы. Ведь сестра рассказала ей о больших зубах Метелицы и о том, что она совсем не страшная.


Вот и поступила лентяйка к Метелице на работу.

Первый день она ещё кое-как старалась побороть свою лень, слушалась госпожу Метелицу, взбивала ей перину и подушки так, что перья летели во все стороны.

А на второй и третий день стала её одолевать лень. Утром нехотя поднималась она с кровати, постель своей хозяйки стлала плохо, а перину и подушки совсем перестала взбивать.

Надоело Метелице держать такую служанку, вот она и говорит ей:

— Уходи-ка ты обратно к себе домой!



Uni Bo‘ron kampir katta darvoza oldiga olib boribdi, lekin yalqov qiz darvoza ostidan o‘tib ketayotganida uning ustiga oltin o‘rniga bir qozon qoramoy quyibdi.

— Mana, haqingni ol! — debdi Bo‘ron kampir. Darvoza shu zahoti berkilib qolibdi.

Yalqov qiz uyiga yaqinlashganda, uning qanday isqirtligini ko‘rib xo‘roz quduqning ustiga uchib chiqib qichqiribdi:

— Qu-qu-qu-qu! Ey, xaloyiq, boq,
Bir qiz kelar usti moy, tuproq.

Yalqov qiz yuvinaveribdi, yuvinaveribdi —
qoramoyni sira ketgiza olmabdi. U shunday
irkitligicha qolib ketibdi.



Тут лентяйка обрадовалась.

«Ну, — думает, — сейчас на меня золото посыпется».

Подвела её Метелица к большим воротам. Распахнулись ворота. Но когда выходила из них лентяйка, не золото на неё посыпалось, а опрокинулся котёл со смолой.


— Вот тебе награда за твою работу, — сказала Метелица и захлопнула ворота.

Пришла лентяйка домой, а петушок, сидевший на колодце, увидел её и закричал:

— Будут смеяться все на селе:
Входит девушка вся в смоле!

И так смола к ней крепко пристала, что осталась у неё на коже на всю жизнь.





YALQOV GEYNS

Geyns degan yalqov bo'lgan ekan.

Har safar ishdan qaytayotganida charchagandan «uf» tortib qo'yar ekan. Uning bor-yo'q qiladigan ishi esa o'tloqda echkini boqish ekan.

— Bahordan to kuzgacha echkini o'tlatib yurish judayam tinka quritadigan ish-da, — derkan u. — Yonboshlab bir oz mizg'ib olishning iloji bo'lganda ham boshqa gap edi. Qayoqda deysiz! U yosh nihollarni g'ajib qo'ymasin, bitta-yarimtasining bog'iga kirib ketmasin yoki butunlay qochib ketmasin deb ko'zlarini lo'q qilib, tikilib turishing kerak. Bu ahvolda osoyishta va quvnoq hayot kechirib bo'larmishmi?

U bu dardisardan qanday qutulsam ekan, deb bosh qotira boshlabdi. Ancha vaqtgacha hech nima o'ylab topa olmabdi. Keyin miyasiga yarq etib bir fikr kelibdi.

— Trinaga uylanib qo'ya qolay! Uning ham echkisi bor. Ikkalasini qo'shib boqaveradi. Mening ham jonim tinchiydi-qo'yadi.

Geyns Trinaning ota-onasi huzuriga borib, mehnatkash va kamtar qizlarini unga turmushga berishlarini iltimos qilibdi. Ota-ona paysalga solib o'tirmay darhol rozilik berishibdi.

Geyns Trinaga uylanibdi-yu, ikkala echkini ham xotini boqa boshlabdi. Geynsning kuni tug'ib qolibdi, endi faqat bekorchilikdan charchab dam oladigan bo'libdi.

Lekin Trina ham xuddi Geyns singari ishyoqmas ekan.

— Azizim Geyns, — debdi u bir kuni, — nega endi biz bekordan-bekorga hayotimizni buzib, yoshligimizni hazon qilyapmiz? Yaxshisi, echkilarimizni qo'shniga beraylik, u bizga asalari uyasini beradi. Echkilarning turgan-bitgani tashvish. Ular har tongda bizni shirin uyqudan uyg'otishadi. Asalari uyasini bo'lsa uyning orqasiga, oftobro'q joyga qo'yamiz. Tashvishdan ham qutulamiz-qo'yamiz. Asalarilarni qo'riqlashning ham, o'tloqqa haydab chiqishning ham hojati yo'q. Ular o'zlari uyiga yo'l topib kelaverishadi, asal ham yig'ib berishadi. Biz bo'lsak qo'limizni sovuq suvga ham urmaymiz.

— Sen oqila ayoldek fikr yurityapsan, — deb javob beribdi Geyns. — Asal echki sutidan ancha to'yimliroq va lazzatliroq, yana anchagacha buzilmay turadi.

Ular qo'shninikiga chiqishibdi. U ikki echkiga bitta asalari uyasini jon deb almashibdi.

Asalarilar yoz o'yi tong sahardan to xuftongacha charchamay asal tashishibdi. Kuzga borib uya ajoyib asalga to'libdi. Geyns bir ko'za to'la asal yig'ib olibdi.



Пошел Гейнц к родителям Трины и попросил выдать за него их прилежную и скромную дочку. Родители не стали долго раздумывать и тут же согласились.

Женился Гейнц на Трине, и стала она пасти обеих коз. Для Гейнца настали красные деньки, он и отдыхал-то теперь только от лени.

Но Тонна оказалась такой же ленивой, как и Гейнц.


— Милый Гейнц, — сказала она как-то, — зачем мы понапрасну портим жизнь да губим свою молодость? Отдадим-ка лучше наших коз соседу, а он даст нам за них пчелиный улей. От коз одно только беспокойство. Они каждое утро будят нас от сладкого сна. А улей мы

поставим позади дома, на солнышке, и избавимся от всякой заботы. Пчёл-то ведь ни стеречь, ни выгонять на пастбище не надо. Они сами найдут дорогу к дому и мёду собирают. А мы пальчиком не шевельнём.

— Ты рассуждаешь, как умная женщина, — отвечал Гейнц, — так мы и сделаем. Мёд сытней да и вкусней, чем козье молоко, да и не портится он дольше.

Пошли они к соседу, и тот, конечно, очень охотно променял один улей на двух коз.

Пчёлы неумоимо летали всё лето, с раннего утра до позднего вечера, и к осени улей был полон прекрасного мёда. Гейнц набрал его целый кувшин.





Bu ko‘zani ular yotoqlariga qo‘yishibdi, lekin bari-bir uni birov o‘g‘irlab ketmasaydi yoki sichqonlar yeb qo‘ymasaydi degan xavotirda ekanlar.

Shuning uchun Trina yotganida yoniga yo‘g‘on tayoqni suyab qo‘yarkan. U chaqirilmagan mehmonlarni naq o‘rnida yotgan joyida quvishga qaror qilibdi.

Kunlardan bir kun tong otib, vaqt allamahol bo‘lib qolganda hali ham par to‘shakda cho‘zilib yotgan Geyns xotiniga:

— Bilaman, hamma xotinlar shirinlikka o‘ch bo‘lishadi. Menga sezdirmasdan asaldan yalab yurgandirsan.

Shuning uchun undan ko‘ra asalni ona-bola g‘ozlarga almashtirib qo‘ya qolaylik, bo‘lmasa hammasini yeb bitirasan, degan qarorga keldim, — debdi.

— Mayli, roziman, — debdi Trina. — Lekin asalni faqat o‘g‘limiz katta bo‘lganda almashamiz. G‘ozlarni u boqadi. Ular bilan ovora bo‘lib, sog‘lig‘imni ketkizmayman-ku, axir!

— Gapingni qara-yu! — dedi Geyns. — Bizning o‘g‘limiz g‘oz boqarmishmi! Hozirgi bolalar qanday o‘zboshimcha bo‘lib ketishganini bilasanmi? Ular, ota-onalarimizdan aqlimiz deb o‘ylab, hamma ishni o‘z bilganlaricha qilishadi.

— Eh-ha, — debdi Trina, — agar gapimga kirmasa, rosa ta‘zirini beraman! Men o‘shanda tayoqni olib, shunday boplaymanki uni!

Кувшин этот они поставили в своей спальне на полку, но всё равно очень боялись, как бы мёд не стащили, как бы мыши его не пое-ли. Трина положила рядом с постелью здоровенную ореховую палку, что-бы гонять незваных гостей этой палкой и не вставать зря.

И вот однажды, когда на дворе уже давным-давно стоял белый день, а Гейнц всё ещё валялся на пери-не — отдыхал от сна, — он сказал жене:

— Знаю я, все женщи-ны любят сладенького по-есть. И ты небось лакомишь-ся потихоньку медком. Вот я и подумал: лучше уж променять наш мёд на гуся с гусятами, а то, пожалуй, ты весь его съешь.

— Ну что ж, я согласна, — сказала Трина. — Но мы сделаем это только тогда, когда у нас вырастет сынок. Пусть он и пасёт их. Не самой же мне возиться с гусятами и портить своё здоровье!

— Как бы не так! — отвечал Гейнц. — Станет наш сынок гусей пасти! Знаешь, какие нынче дети — совсем от рук отбились. Они, видно, думают, что стали умнее родите-лей, и хотят всё делать по-своему.

— Ух, — сказала Трина, — достанется же ему, если он не станет меня слушаться! Возьму я тогда палку да так его отделаю!



Qanday urishni ko'rsatmoqchi bo'lib tayoqni olibdi-da, behosdan asal to'la ko'zaga tegib ketibdi.

Ko'za devorga urilibdi, keyin yerga tushib chil-chil sinibdi. Ajoyib asal esa yerga to'kilib ketibdi.

— Mana senga jo'jalari bilan g'oz! — debdi Geyns. — Hayriyatki, ko'za boshimga tushmadi. Hammasi yaxshilikcha tugaganiga shukur qilishimiz kerak.

To'satdan uning ko'zi bir sopol parchasidagi ozroq asalgaga tushibdi-yu, sevinganidan qichqirib yuboribdi:

— Iye, mana bu sopol parchasida oz bo'lsa ham asal qolibdi. Yeb olib, bunday vahimadan keyin bir oz dam olmasak chakki bo'lmaydi. Sal kechroq tursak hech narsa qilmas, kun axir juda uzun.



И чтобы показать, как это будет, она схватила свою ореховую палку, размахнулась да и стукнула прямо по кувшину с мёдом.

Кувшин ударился об стенку, потом упал на пол и разбился на мелкие кусочки. А прекрасный, сладкий мёд весь растекся по полу.

— Вот тебе и гусь с гусятами! — сказал Гейнц. — Счастье ещё, что кувшин мне на голову не упал. Мы должны радоваться, что всё кончилось так благополучно.

Вдруг он заметил в одном из черепков немного мёду и радостно воскликнул:

— Да тут и полакомиться кое-чем осталось! А потом и отдохнуть после такого страха не мешает. Не беда, коли мы встанем чуточку попозднее: день-то ведь и так уж больно велик.





MITTI ODAMCHALAR


Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir etikdo‘z bo‘lgan ekan. U shunchalik kambag‘allashib ketibdiki, bir juft etiklik ko‘ndan bo‘lak hech nimasi qolmabdi.

Xullas, u kechqurun etikni bichib qo‘yibdi va ertalab tikmoqchi bo‘libdi. U vijdoni pok odam bo‘lgani uchun o‘rniga xotirjam yotib uxlabdi.

Ertalab etikdo‘z ish boshlamoqchi bo‘lganda ikkala poy etik ham stolda tayyor turganini ko‘ribdi.

Etikdo‘z juda taajjublanibdi, bu haqda nima o‘ylashini ham bilmabdi. U etiklarni sinchiklab ko‘zdan kechiribdi. Ular shunday benuqson tikilgan ekanki, etikdo‘z biror qiyshiq chokni topa olmabdi. Qilingan ish etikdo‘zlik san‘atining chinakam mo‘jizasi ekan.

Hademay xaridor ham kelibdi. Etiklar unga juda ma‘qul bo‘lib, u odatdagidan ko‘proq pul to‘lab ketibdi. Endi etikdo‘z ikki juft etikka yarasha ko‘n sotib olibdi.



МАЛЕНЬКИЕ ЧЕЛОВЕЧКИ

Жил на свете сапожник.
 Денег у него совсем не было.
 И так он наконец обеднел, что остался у него только один кусок кожи на пару сапог. Выкроил под вечер он из этой кожи заготовки для сапог и подумал: «Лягу я спать, а утром встану пораньше и сошью сапоги».

Так он и сделал: лёг и уснул. А утром проснулся, умылся и хотел садиться за работу — сапоги шить. Только смотрит, а работа его уже готова — сшиты сапоги.

Очень удивился сапожник. Он не знал даже, как такой случай можно объяснить. Взял он сапоги и стал их внимательно рассматривать. Как хорошо были они сработаны! Ни одного стежка не было неверного. Сразу было видно, что искусный мастер те сапоги шил. А скоро нашёлся и покупатель на сапоги. И так они ему понравились,

U kechqurun etiklarni bichib qo'yibdi-da, ertalab ish boshlamoqchi bo'libdi. Ammo u uyqudan turganda etiklar tayyor bo'lgan ekan. Tezda xaridorlar ham kelishibdi. Ular shuncha ko'p pul berishibdiki, etikdo'z endi to'rt juft etikka yetgulik ko'n xarid qilibdi.

Ertalab u bu to'rt juft etikni ham taxt holda ko'ribdi.

Shu-shu bu odat tusiga kirib qolibdi: kechqurun u nimani bichib qo'ysa, ertalab tayyor turaveribdi.

Oradan ko'p o'tmay etikdo'z yana badavlat bo'lib ketibdi.

Yangi yilga yaqin qolganda bir kuni kechqurun etikdo'z etik bichayotib, xotiniga:

— Shu kech uxlamasdan, bizga bunday yaxshilik qilayotgan kimlar ekanini ko'rib olsak qanday bo'larkin? — debdi.

Xotin quvonib ketibdi. U chiroqni pasaytiribdi, ikkalasi burchakda osig'liq turgan ko'ylak orqasiga berkinib olishibdi-da, nima bo'lishini kuta boshlashibdi.

Yarim kechada jimjitgina ikki odamcha paydo bo'libdi. Ular qip-yalang'och ekan. Odamchalar etikdo'zlik stoli yoniga o'tirishib, bichilgan ko'n'larni olishibdi va o'zlarining jajji qo'lchalari bilan chaqqon va tez bigiz sanchib, mix qoqib ketishibdiki, og'zi ochilib qolgan etikdo'z ulardan ko'z uzolmabdi. Odamchalar charchoq nimaligini bilmay, to etiklarning hammasini tikib tugatmagunlaricha ishlayverishibdi. Keyin ular sakrab turib qochib ketishibdi.



что заплатил он за них большие деньги. Смог теперь сапожник купить себе кожи на две пары сапог. Скроил он вечером две пары и думает: «Лягу я сейчас спать, а утром встану пораньше и начну шить».

Встал он утром, умылся, смотрит — готовы обе пары сапог.

Покупатели опять скоро нашлись. Очень им понравились сапоги. Заплатили они сапожнику большие деньги, и смог он купить себе кожи на целых четыре пары сапог.

На другое утро и эти четыре пары были готовы.

И так пошло с тех пор каждый день. Что скроит вечером сапожник, то к утру уже бывает сшито.

Кончилась у сапожника бедная да голодная жизнь.

Однажды вечером скроил он, как всегда, сапоги, но перед сном вдруг говорит своей жене:

— Слушай, жена, что если сегодня ночью не ложиться спать, а посмотреть, кто это нам сапоги шьёт?

Жена обрадовалась и сказала:

— Конечно, не будем ложиться, давай посмотрим.

Зажгла жена свечку на столе, потом спрятались они в углу под платьями и стали ждать.



Ertasiga ertalab etikdo‘zning xotini:

— Bu mitti odamchalar bizni badavlat qilishdi, biz ham ularning yaxshiligini qaytarishimiz kerak. Ularning egnida hech qanday kiyimi yo‘q ekan, ular balki sovuq qotishayotgandir. Bilasizmi nima? Men ularga ko‘ylakchalar, kamzulchalar va ishtonchalar tikib, har biriga bir juftdan paypoq to‘qib bermoqchiman. Siz ham ularga bir juftdan kovushcha tikib bering, — debdi.

— Jonim bilan, — deb javob beribdi eri.

Kechqurun hammasi taxt bo‘lgach, bichilgan etiklar o‘rniga ular stolga sovg‘alarni qo‘yishibdi. O‘zlari esa odamchalar nima qilishini ko‘rish uchun berkinib olishibdi.

Yarim tunda odamchalar kelib ish boshlamoqchi bo‘lishibdi. Lekin ko‘n, charm o‘rniga ular o‘zlari uchun hozirlangan sovg‘alarni ko‘rishibdi. Odamchalar oldin hayron bo‘lib turi-shibdi, keyin esa quvonchlari ichiga sig‘may ketibdi.



И вот ровно в полночь пришли в комнату маленькие человечки. Сели они за сапожный стол, взяли своими маленькими пальчиками накроенную кожу и принялись шить. Они так проворно и быстро тыкали шилом, тачали да постукивали молотками, что сапожник от изумления не мог отвести от них глаз. Они работали до тех пор, пока не сшили все сапоги. А когда последняя пара была готова, спрыгнули человечки со стола и сразу исчезли.

Утром жена сказала мужу:

— Маленькие человечки сделали нас богатыми. Надо и нам сделать для них что-нибудь хорошее. Приходят человечки к нам по ночам, одежды на них нет, и наверно, им очень холодно. Знаешь, что я придумала: сошью-ка я каждому из них курточку, рубашечку и штанишки.

А ты им сапожки смастери.




Ular darrov kiyinib olishibdi-da, chiroyli kamzulchalarining u yoq-bu yog'ini tuzatib ashula ayta ketishibdi:

Biz qanchalar go'zalmiz, go'zal,
Havas qilar ko'rgan har odam.
Kuyib-pishib ishladik jadal,
Arzir, maza qilib olsak dam.

Keyin stul va skameykalardan oshib, sakrab-sakrab o'yinga tushishibdi. Va nihoyat o'yinga tusha-tusha chopqillab chiqib ketishibdi. Etikdo'z esa umrining oxirigacha muhtojlik ko'rmay baxtiyor yashabdi.





Выслушал её муж и говорит:
— Хорошо ты придумала. То-то они, верно, обрадуются!

И вот однажды вечером положили они свои подарки на стол вместо выкроенной кожи, а сами опять спрятались в углу и стали ждать маленьких человечков.


Ровно в полночь, как всегда, пришли в комнату маленькие человечки. Они прыгнули на стол и хотели сразу же приняться за работу. Только смотрят — на столе вместо скроенной кожи лежат красные рубашечки, костюмчики и стоят маленькие сапожки.

Сперва удивились маленькие человечки, а потом очень обрадовались.

Быстро-быстро надели они свои красивые костюмчики и сапожки, затанцевали и запели:

— Хороши у нас наряды,
Значит, не о чём тужить!
Мы нарядам нашим рады
И сапог не будем шить!

Долго пели, танцевали и прыгали маленькие человечки через стулья и скамейки. Потом они исчезли и больше уже не приходили шить сапоги. Но счастье и удача с тех пор не покидали сапожника во всю его долгую жизнь.



BIR XUMCHA SHOVLA

Bir bor ekan, bir yo`q ekan, bir qizcha bo`lgan ekan.

Qizcha meva tergani o`rmonga boribdi-yu, u yerda bir kampirni uchratib qolibdi.

— Salom, qizcha, — debdi unga kampir. — Menga mevalaringdan ber, aylanay.

— Oling, momojon, — debdi qizcha.

Kampir mevalardan bir oz yebdi-da:

— Menga meva berding, endi senga men ham bir narsa sovg`a qilaman, — debdi. — Mana senga xumcha. Faqat:

— Men uchgacha sanasam,
Qayna, sehrli xumcham! —

desang bo`ldi. U mazali shovla pishira boshlaydi. Unga:

— Men uchgacha sanasam,
Qaynashdan to`xta, xumcham! —

desang, u pishirishdan to`xtaydi.



ГОРШОК КАШИ

Жила-была одна девочка.

Пошла девочка в лес за ягодами и встретила там старушку.

— Здравствуй, девочка, — сказала ей старушка, — дай мне ягод, пожалуйста.

— На, бабушка, — говорит девочка.

Поела старушка ягод и сказала:

— Ты мне ягод дала, а я тебе тоже что-то подарю. Вот тебе горшочек. Стоит только сказать:

— Раз, два, три,
Горшочек, вари!

И он начнёт варить вкусную, сладкую кашу. А скажешь ему:

— Раз, два, три,
Больше не вари! —

и он перестанет варить.

— Rahmat, momojon, — debdi qizcha va xumchani olib uyiga, onasining yoniga ketibdi.

Ona bu xumchani ko‘rib quvonibdi. Dasturxonda doimo bemashaqqat, betashvish xushxo‘r, mazali shovla tayyor turadi-yu, quvonmay bo‘larkanmi?

Bir kuni qizcha qayoqqadir ketgan ekan, ona xumchani oldiga qo‘yib:

— Men uchgacha sanasam,
Qayna sehrli xumcham! —


debdi. Xumcha pishira ketibdi. Ko‘p shovla pishirib yuboribdi. Ona yeb qorni to‘yib qolibdi. Xumcha bo‘lsa hadeb pishirayotgan emish. Qanday qilsa to‘xtarkin?

«Men uchgacha sanasam,
Qaynashdan to‘xta, xumcham!»

deyish kerak ekan-u, ona bu so‘zlarni unutilib qo‘ygan ekan. Xumcha hadeb pishiraveribdi. Xonaning hamma yog‘i shovlaga to‘lib ketibdi: dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla.

Xumcha esa hamon pishirayotganmish. Tomlarga ham, hovlilarga ham shovla toshib chiqibdi. Hatto ko‘chalardan ham shovla oqayotganmish.

Ona qo‘rqib ketibdi. Hayriyat, qizcha uydan uncha



— Спасибо, бабушка, — сказала девочка, взяла горшочек и пошла домой к матери.

Обрадовалась мать этому горшочку. Да и как не радоваться? Без труда и хлопот всегда на обед вкусная, сладкая каша готова.

Вот однажды ушла девочка куда-то из дому, а мать поставила горшочек перед собой и говорит:

— Раз, два, три,
Горшочек, вари!

Он и начал варить. Много каши наварил. Мать поела, сыта стала. А горшочек всё варит и варит кашу. Как его остановишь?

Нужно было сказать:

«Раз, два, три,
Больше не вари!»

Да мать забыла эти слова, а девочки дома не было. Горшочек варит и варит. Уж вся комната полна каши, уж и в прихожей каша, и на крыльце каша, и на улице каша, а он всё варит и варит. Испугалась мать, побежала за девочкой, да не перебраться ей через дорогу — горячая каша рекой течёт. Хорошо, что девочка недалеко от дома




uzoqda emas ekan. Ko'chada nimalar bo'layotganini ko'rib qolibdi-yu, g'izillaganicha uyiga chopibdi. Bir amallab peshayvonga chiqibdi-da, eshikni ochib qichqiribdi:

— Men uchgacha sanasam,
Qaynashdan to'xta, xumcham!

Xumcha pishirishdan to'xtabdi. Shovlani esa xumcha shuncha ko'p pishirib yuborgan ekanki, kim shaharga bormoqchi bo'lsa, shovla yeb, o'ziga yo'l ochishi kerak ekan.

Faqat hech kim bundan shikoyat qilmabdi. Shovla xushxo'r va mazali ekan-da.



была. Увидела она, что на улице делается, и бегом побежала домой. Кое-как взобралась на крылечко, открыла дверь и крикнула:

— Раз, два, три,
Больше не вари!


И перестал горшочек варить кашу.

А наварила он её столько, что тот, кому приходилось из деревни в город ехать, должен был себе в каше дорогу проехать.

Только никто на это не жаловался.

Очень уж была каша
вкусная и сладкая.





YETTI SHAHZODA-QARG'A

Bir odamning yetti o'g'li bo'lib, bitta ham qizi bo'lmagan ekan. U esa qizi ham bo'lishini juda-juda istar ekan.

Nihoyat qiz ham tug'ilibdi. Ota bilan ona juda ham quvonishibdi; biroq qizcha kichik va nimjon bo'lgani uchun uni tezroq suvga solib, cho'qintirish* kerak ekan. Shuning uchun ota o'g'illaridan birini yaqindagi quduqqa suvga yuboribdi. Uning ketidan qolgan olti aka-uka ham yuguribdi.

Aka-ukalar quduq yonida janjallashib qolishibdi — axir har qaysisi ham suvni birinchi bo'lib olgisi kelar ekan-da! To'polonda ko'zani quduqqa tushirib yuborishibdi. Ular quduqning atrofida to'planishib, nima qilishlarini bilmay turaverishibdi: ko'zasiz uyga qaytishga qo'rqishibdi. Otaning

* Cho'qintirish — xristian diniga kiritish marosimi.



СЕМЬ ПРИНЦЕВ-ВОРОНОВ

Было у одного человека семеро сыновей и ни одной дочки, а ему очень хотелось её иметь. Вот, наконец, жена подала ему добрую надежду, что будет у них дитя; и родилась у них девочка.

Радость была большая; но дитя оказалось хилое и маленькое, так что пришлось его крестить раньше срока.

Послал отец одного из мальчиков к колодцу принести воды для крещения; шестеро остальных побежало вслед за ним — каждому из них хотелось первому набрать воды, — вот и упал кувшин в колодец. И они стояли и не знали, что им теперь делать, и никто не решался вернуться домой.

Отец ждал их, ждал, а они всё не возвращались, потерял он, наконец терпенье и говорит:

kuta-kuta toqati toq bo'libdi. Ulardan esa hamon darak yo'q emish. Shunda u qizchani nobud bo'lishidan qo'rqib, achchiq ustida:

— Yana o'yinga berilib ketib, hamma narsani xayollaridan chiqarib yuborishibdi, qarg'aga aylangurlar! — deb xitob qilibdi.

U shu so'zlarni aytar-aytmas havoda qanotlarning shi-tirlaganini eshitib, yettita ko'mirdek qora qarg'ani ko'ribdi. Qarg'alar aylanib-aylanib, uchib ketishibdi.

Ota-ona qancha qayg'urishmasin, o'g'illarini asli holiga qaytarish endi qo'llaridan kelmas ekan. Faqat kichik qizlari ko'ngilga malham bo'libdi. U kun sayin shirin va go'zal bo'la boribdi. Ota-ona uning oldida o'g'illarini tilga olmaslikka harakat qilishar ekan. Shuning uchun ham uzoq vaqtgacha qiz akalari borligidan bexabar yuribdi.



— Пожалуй, гадкие мальчишки опять заигрались, а про дело забыли.

И он стал опасаться, что девочка помрёт некрещёной, и с досады крикнул:

— А чтоб всех в воронов обратило!

Только вымолвил он эти слова, вдруг слышит над головой шум крыльев.

Глянул он вверх, видит — кружат над ним семеро чёрных, как смоль, воронов.

И не могли отец с матерью снять своего заклятия, и как они ни горевали об утрате своих семерых сыновей, но всё же мало-помалу утешились, гляючи на свою любимую дочку. Она вскоре подросла, окрепла и с каждым днём становилась всё красивей и красивей.



To'satdan u bir kuni odamlarning o'zi haqidagi gaplarini eshitib qolibdi:

— O'zi yaxshi qiz-u, akalarining boshiga yetgan-da.

Qiz xafa bo'lib, ota-onasi oldiga borib so'rabdi:

— Akalarim bo'lgani rostmi! Ularga nima qilgan?

Ota bilan ona, qizimiz hamma gapni bilib olibdi, endi undan sir saqlab o'tirishning hojati yo'q, degan qarorga kelishibdi. Ular bo'lgan voqeani so'zlab berishibdi va uning hech qanday gunohi yo'qligini uqdirishibdi. Lekin qiz o'shandan keyin kecha-yu kunduz g'am tortib, o'zini o'zi koyib yuribdi. U nima qilib bo'lsa ham akalarini topib, ularni xalos etishga ahd qilibdi.

U kunlarning birida dunyoni kezib, akalarini topish maqsadida uydan chiqib ketibdi. U uydan ota-onasidan esdalik uchun bir uzuk, ochlikdan o'lib ketmaslik uchun ozgina non, suvsab



Долгое время она не знала, что были у неё братья — отец и мать избегали говорить ей об этом. Но вот однажды она случайно от людей услышала, как те говорили, что девочка — да и вправду хороша, да виновата в несчастье своих семерых братьев.



Услышав об этом, она сильно запечалилась, подошла к отцу — матери и стала у них спрашивать, были ли у неё братья, и куда они пропали. И вот, — правды не скроешь, — им пришлось ей объяснить, что это случилось по воле свыше и рождение её было лишь нечаянной тому причиной. Стала девочка каждый день себя попрекать и крепко призадумалась, как бы ей вызволить своих братьев.

И не было ей покоя до той поры, пока не собралась она тайком в дальнюю путь-дорогу, чтоб отыскать своих братьев и освободить их во что бы то ни стало. Взяла она с собой в дорогу на память об отце — матери

qolmaslik uchun bir ko‘zacha suv, yo‘lda o‘tirib hordiq chiqarish uchun kursicha olibdi, xolos.

U yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi va dunyoning narigi chekkasiga borib qolibdi. U yerda quyoshni ko‘rib qolib, yaqinroq bormoqchi bo‘lgan ekan, lekin quyoshning issig‘idan kuyib qolishdan qo‘rqibdi.

Qiz qo‘rqib ketibdi-yu, darhol oymoma tomonga yuguribdi.

Lekin oy juda ham sovuq ekan, hash-pash deguncha sumalak qilib muzlatib qo‘yishi hech gap emas ekan.


Shunda qiz yulduzlarning yoniga boribdi. Har yulduz o‘z kursichasida o‘tirgancha, qizni xushmuomala va ochiq yuz bilan qarshi olibdi. Tong yulduzi bo‘lsa o‘rnidan turib, qizga kichkina sehrli tayoqcha beribdi.

— Akalaring shisha tog‘da, — debdi u, — faqat shu sehrli tayoqcha bilangina tog‘ni ocha olasan.

Qiz tayoqchani ro‘molga o‘rab yo‘lga tushibdi. Yo‘l yursa ham mo‘l yurib, nihoyat toqqa yetib kelibdi. Tog‘ning darvozasi berk ekan. Qiz sehrli tayoqcha bilan ochmoqchi bo‘lib ro‘molni yozsa, tayoqcha yo‘q emish. Rahmdil yulduzlarning sovg‘asi g‘oyib bo‘libdi!

Endi nima qiladi? Shisha tog‘ning kaliti bo‘lmasa, akalarini qanday qutqaradi?

U akalarini juda ham qutqargisi kelar ekan. Shuning uchun pichoqni



одно лишь колечко, хлебец — на случай, если проголодается, и скамеечку, чтобы можно было отдохнуть, если устанет.

И пошла она далеко-далеко, на самый край света. Вот подошла она к солнцу, но было оно такое жаркое, такое страшное, и оно пожирало маленьких детей. Бросилась она поскорей от солнца к месяцу, но был он такой холодный, мрачный и злой, и как увидел он девочку, сказал ей:

— Чую, чую мясо человечесьё.

Она убежала от него и пришла к звёздам. Они были ласковые, и сидела каждая из звёзд на особой скамеечке. Поднялась утренняя звезда, дала ей костылёк и сказала:

— Если не будет с тобой этого костылька — не разомкнуть тебе Стекло́нной горы, где заточены твои братья.

Взяла девочка костылёк, завернула его хорошенько в платочек и пошла. Шла она долго-долго, пока не пришла к Стекло́нной горе. Ворота были закрыты, хотела она достать костылёк, развернула платок, глядь — а он пустой, потеряла она подарок добрых звёзд.

Что тут делать? Ей так хотелось спасти своих





olibdi-da, sinchalog‘ini kesib, uni kalit‘ qilib darvoza qulfiga solibdi. Darvoza shu zahotiyiq ochilibdi. Qizcha tog‘ ichiga kirib, soqolli pakana odamchani ko‘ribdi.

— Sen bu yerda nima axtarib yuribsan, qizcha? — deb so‘rabdi u.

— Men akalarim — yetti qarg‘ani axtarib yuribman, — deb javob beribdi qiz.

— Ular hozir uyda emas, — debdi pakana odamcha, — agar xohlasang, ichkariga kirib kutib tur.

Pakana odamcha qarg‘alarga yettita likopchada ovqat, yetti qadahchada suv keltirib qo‘yibdi. Singil esa har qaysi likopchadan bir luqmadan totibdi, har qaysi qadahchadan bir qultumdan ichibdi. So‘nggi qadahchaga esa uydan olib kelgan uzukni tashlabdi.

Ko‘p o‘tmay havoda qanotlarning shovillashi eshitilibdi.

— Qarg‘alar uyga qaytib kelishyapti, — debdi pakana odamcha.



братьев, а ключа от Стекло-
лянной горы не оказа-
лось. Взяла тогда добрая
сестрица нож, отрезала себе ми-
зинец, сунула его в ворота и легко их открыла. Входит
она, а навстречу ей карлик, и говорит ей:

— Девочка, что ты здесь ищешь?

— Ищу я своих братьев, семерых воронов.

А карлик ей говорит:

— Воронов нету дома. Если хочешь их подождать, пока
они вернуться, то входи.

Потом карлик принёс воронам пищу на семи тарелоч-
ках, отведала сестрица из каждой тарелочки по крошке и
выпила из каждого кубочка по глоточку, а в последний ку-
бочек опустила колечко, взятое с собой в дорогу.

Вдруг слышит в воздухе шум крыльев и свист. И гово-
рит ей карлик:

— Это летят домой вороны.



Qarg'alar juda ochiqib kelishibdi va darhol o'zlarini ovqatga urishibdi.

Lekin ularning hammasi birin-ketin bir gapni takrorlay boshlashibdi:

— Kim mening likopchamdan ovqat yedi? Kim mening qadahchamdan suv ichdi? Bu yerda odam bo'lgan ko'rinadi.

Yettinchi qarg'a esa qadahchadagi suvni ichib, tagigacha bo'shatgan ekan, undan uzuk dumalab tushibdi. Qarg'a ota-onasiga tegishli uzukni darrov tanibdi.

— Oh, singlimizning diydorini bir ko'rsak, yana odam qiyofasiga kirardik? — xitob qilibdi u.

Qiz bu gapni eshitib akalari yoniga chiqibdi. Shu zahoti hamma qarg'alar odamga aylanib qolishibdi. Ular kichkina singilchalarini qanday e'zozlaganlarini ta'riflash qiyin ekan! Keyin hammalari qo'l ushlab, ota-onalari huzuriga jo'nashibdi.


Вот прилетели они, есть-пить захотели, стали искать свои тарелочки и кубочки. А ворон за вороном и говорят:

— Кто это ел из моей тарелочки? Кто пил из моего кубочка? Никак человечьи уста?

Допил седьмой ворон до дна свой кубочек, тут и выкатилось колечко. Посмотрел он на него и узнал, что то колечко отца — матери, и говорит:

— Дай боже, чтобы наша сестрица тут оказалась, тогда мы будем расколдованы.

А девочка стояла тут же за дверью, она услышала их желание и вошла к ним, — и вот обернулись вороны в людей. И целовались они, миловались и весело вместе домой воротились.





TULKI BILAN G'OZLAR

Kunlardan bir kun tulki maysazorga kelib qolibdi. Maysazorda esa g'ozlar o'tlab yurgan ekan. Semiz-semiz g'ozlar ekan.

Tulki sevinib ketib:

— Mana, hozir hammangni yeyman! — debdi.

G'ozlar bo'lsa:

— Qo'y, bizni yema, tulki, bizga rahm qil! — deyishibdi.

— Yo'q, — debdi tulki, — rahm qilmayman, hammangizni yeyman!

Ularning qo'lidan nima ham kelardi!

Shunda bir g'oz:

— Tulki, ijozat ber, o'limimiz oldidan loaqal bitta qo'shiq aytib olaylik, qo'shig'imizni tugatganimizdan so'ng mayli, yeyaver. Biz hatto semizrog'imizni tanlab olishing oson bo'lsin deb, oldingda saf tortib turamiz, — debdi.

— Mayli, — debdi tulki, — aytinglar.



ЛИСА И ГУСИ

Шла как-то раз лиса лугом,
а на лугу сидело рядком целое ста-
до хороших, жирных гусей. Увидела гу-
синое стадо и обрадовалась.

— Вот что значит вовремя придти! —
сказала она гусям. — Вы так удобно уселись,
что мне остаётся только съесть вас всех, одного за
другим.

Испугались гуси. Вскочили они с места, захлопа-
ли крыльями, загоготали жалобно, стали просить лису
о пощаде.

Но лиса и слушать не хотела:

— Нет, нет, не кричите зря! Всё равно я вас съем.
Тогда один из гусей набрался храбрости и сказал:

— Раз уж нам, несчастным, придётся погибнуть, поз-
воль нам перед смертью последнюю песенку спеть. А как
споем мы песенку, опять сядем все в ряд, чтобы тебе удоб-



Avval bitta g'oz qo'shiq boshlabdi. Uning qo'shig'i esa mana bunday uzun ekan:

— G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a.

Keyin uchinchi g'oz boshlabdi:

— G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a.

Keyin esa to'rtinchisi:

— G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, — debdi.

To'rtinchisining ketidan esa beshinchisi aytibdi:

— G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a.


Keyin esa hamma g'ozlar birgalashib baqira boshlashibdi:

— G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a.

G'ozlar qachon qo'shiqlarini tugatishsa, o'shanda ertak ham tugaydi. Ularni tulki yeb qo'yadi.

Faqat g'ozlar aqli! Ular hozir ham:

— G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a! — deb baqirib yurishibdi.



нее было выбирать самых жирных из нас.

— Ну что ж, просьба невелика. Пойте, я, так и быть, подожду, — согласилась лиса.

Вот первый гусь и начал:

— Га-га-га!

Второй не стал дожидаться, пока он кончит, и принялся ему подтягивать:

— Га-га-га! Га-га-га!

А за ним загоготал и третий гусь, и четвертый... И, наконец, все остальные гуси затянули своё «га-га-га».



Так они и гогочут до сих пор. А лиса всё ждёт. Придётся и нам подождать. Допоют гуси свою песню — тогда узнаем, чем сказка кончилась.



QUYON BILAN TIPRATIKAN

Bu ertakka siz balki ishonmassiz.
Ammo bobom hikoya qilayot-
ganda:

— Ertakdagi hamma gap ham uydirma
bo'lavermaydi. Unda haqiqat ham bo'ladi.
Bo'lmasa odamlar uni aytib yurisharmidi, — derdi.
O'sha ertak mana bunday boshlanardi:

Quyoshli, havo ochiq kunlarning birida tipratikan uyi
oldida qo'llarini qovushtirib, qo'shiq aytib turgan ekan.

U qo'shiq aytib turaveribdi, turaveribdi, keyin birdan:
«Ekinzorga borib, sholg'omdan xabar olay-chi. Tipratikan
xonim bolalarni yuvintirib kiyintirguncha, ekinzorga borib,
uyga qaytib kelishga ham ulguraman», deb qaror qilibdi.

Tipratikan yo'lda karamidan xabar olgani ketayotgan
quyon bilan uchrashib qolibdi.

Tipratikan quyonni ko'rib, unga ta'zim qilibdi va mehribonlik
bilan so'rabdi:



ЗАЯЦ И ЁЖ

Этой сказке вы, пожалуй, не поверите.

Однако мой дедушка, рассказывая её, всегда говорил:

— Не всё в этой сказке выдуманно. Есть в ней и правда. А то зачем бы стали люди её рассказывать?

Начиналась эта сказка так.

Однажды в ясный солнечный денёк стоял ёж у дверей своего дома, сложив руки на животе, и напевал песенку.

Пел он свою песенку, пел и вдруг решил: «Пойду-ка я в поле, на свою брюкву посмотрю. Пока, — думает, — моя жена-ежиха детей моет да одевает, я успею и в поле побывать, и домой вернуться.

Пошел ёж и встретился по дороге с зайцем, который шёл в поле — на свою капусту поглядеть.



— Assalomu alaykum, hurmatli quyon. Ahvolingiz qalay?

Quyon bo'lsa juda gerdagan, takabbur ekan. Odob bilan alik olish o'rniga faqat bosh irg'ab qo'ya qolibdi va:

— Xo'sh, tipratikan, kallayi saharlab dalada izg'ib qolibsanmi? — debdi qoppollik bilan.

— Sayr qilgani chiqdim, — debdi tipratikan.

— Sayr qilgani? — kesatib so'rabdi quyon. — Menimcha bunday kalta oyoqcha bilan uzoqqa borolmaysan.

Tipratikan bu gapni eshitib hafa bo'libdi. U kalta va maymoq oyog'i haqida gapirishlarini yoqtirmas ekan.

— Hali sening oyoqlaring tezroq va yaxshiroq yuguradi deb o'ylayotgan bo'lmagin tag'in? — deb so'rabdi u quyondan.

Увидел ёж зайца, поклонился ему и говорит приветливо:

— Здравствуйте, уважаемый заяц. Как выживаете?

А заяц был очень важный и гордый. Вместо того чтобы вежливо поздороваться с ёжиком, он только головой кивнул и сказал грубо:

— Что это ты, ёж, в такую рань по полю рыщешь?

— Я погулять вышел, — говорит ёж.

— Погулять? — спросил заяц насмешливо. — А по моему, на таких коротеньких ножках далеко не уйдёшь.

Обиделся ёж на эти слова. Не любил он, когда говорили о его ногах, которые и вправду были коротенькие и кривые.





— Albatta-da, debdi quyon.

— Unday bo'lsa men bilan kim o'zarga yugurishni istamaysanmi? — debdi tipratikan.

— Sen bilan kim o'zargami? — debdi quyon. —
Qo'y, kulgimni qistatma. Nahotki shu maymoq oyoqlaring bilan mendan o'zib ketsang?

— Mana ko'rasan, — javob beribdi tipratikan. —

O'zib ketishimni ko'rasan.

— Kel, yuguramiz, — debdi quyon.

— Shoshmay tur, — debdi tipratikan. — Avval uyga borib, nonushta qilib olay, yarim soatdan keyin shu joyga qaytib kelaman, ana o'shanda yuguramiz. Xo'pmi?

— Xo'p, — debdi quyon.

Tipratikan uyiga jo'nabdi. Ketayotib o'ylabdi: «Quyon, albatta, mendan tezroq yuguradi. Ammo uning esi past, men bo'lsam aqliman. Men uni ayyorlik bilan yutaman».

Tipratikan uyiga kelib xotiniga:

— Xotin, tezroq kiyimningni kiy, men bilan dalaga borishing kerak, — debdi.

— Nima gap o'zi? — deb so'rabdi tipratikan xonim.



— Уж не думаешь ли ты, — спросил он зайца, — что твои заячьи ноги бегают быстрее и лучше?

— Разумеется, — говорит заяц.

— А не хочешь ли со мной вперегонки побегать? — спрашивает ёж.

— С тобой вперегонки? — говорит заяц. — Не смей меня, пожалуйста. Неужели же ты на своих кривых ножках меня обгонишь?

— А вот увидишь, — отвечает ёж. — Увидишь, что обгоню.

— Ну, давай побежим, — говорит заяц.


— Подожди, — говорит ёж. — Сначала я схожу домой, позавтракаю, а через полчаса вернусь на это место. Тогда и побежим. Ладно?

— Ладно, — сказал заяц.

Пошел ёж домой. Идёт и думает: «Заяц, конечно, быстрее меня бегают. но он глуп, а я умен. Я его перехитрю».

Пришел ёж домой и говорит жене:

— Жена, собирайся поскорее, придется тебе со мной в поле идти.



— Biz quyon ikkimiz kim tez yugurishga bahslashdik. Men quyondan o‘zib ketishim kerak. Sen bo‘lsang bu ishda menga yordam berasan.

— Nima, esingni yeb qo‘ydingmi? — hayron bo‘libdi tipratikan xonim.

— Senga quyon bilan bahslashish yo‘l bo‘lsin! U sendan bir zumda o‘zib ketadi.

— Ishing bo‘lmasin, xotin, — debdi tipratikan. — Kiyimingni kiyda, yur. Nima qilayotganimni o‘zim bilaman.

Xotini kiyinib, tipratikan bilan dalaga jo‘nabdi.

Yo‘lda tipratikan xotiniga:

— Biz quyon bilan mana shu keng dalada yuguramiz. Quyon bir jo‘yakdan yuguradi, men bo‘lsam boshqasidan. Sen-chi, xotin, dalaning narigi chekkasida, mening jo‘yagimning oxirida turasan. Quyon oldingga borishi bilan: «Men shu yerdaman-u!» deb baqirasan. Uqdingmi? — debdi.

— А что случилось? — спрашивает ежиха.

— Да вот мы с зайцем поспорили, кто быстрее бегает — я или он. Я должен зайца обогнать, а ты мне в этом деле поможешь.

— Что ты — с ума сошёл? — удивилась ежиха. — Куда же тебе с зайцем тягаться? Он тебя сразу обгонит.

— Не твоё дело, жена, — сказал ёж.

— Собирайся, и идем. Я знаю, что делаю.

Ежиха пошла с ежом в поле.

По дороге ёж говорит жене:

— Мы побежим с зайцем вот по этому длинному полю. Заяц побегит по одной борозде, а я — по другой. А ты, жена, стань в конце у моей борозды. Как только подбежит к тебе заяц, ты крикни: «Я уже здесь!» Поняла?

— Поняла, — ответила жена.

Так они и сделали.



— Uqdim, — deb javob beribdi xotini.

Ular shunday qilibdilar ham. Tipratikan xotinini o‘z jo‘yagining oxiriga eltib qo‘yibdi, o‘zi esa quyonni qoldirgan joyga qaytib boribdi.

— Xo‘sh, — debdi quyon, — yuguramizmi?

— Yuguramiz, — debdi tipratikan.

— Bir, ikki, uch! — deb baqiribdi quyon.

Ular o‘z jo‘yaglari boshida turishibdi.

Keyin zing‘illab yugurib ketishibdi.

Tipratikan uch-to‘rt qadam yugurgach, astagina o‘z joyiga qaytib kelib o‘tirib olibdi. O‘tirib dam olibdi. Quyon bo‘lsa chopib ketaveribdi, ketaveribdi. Chopib o‘z jo‘yagining oxiriga yetibdi, u yerda esa tipratikan xonim unga:

— Men shu yerdaman! — deb baqiribdi.

Shuni aytish kerakki, tipratikan bilan xotini bir-biriga judayam o‘xshar ekan.

Quyon tipratikanning o‘zib ketganiga hayron qolibdi.

— Endi orqaga yuguramiz, — debdi u tipratikan xonimga. —

Bir, ikki, uch!

Quyon g‘izillab avvalgidan ham tezroq uchib ketibdi. Tipratikanning xotini bo‘lsa o‘tirgan joyida o‘tirganicha qolaveribdi.

Quyon jo‘yakning boshiga yugurib boribdi, tipratikan bo‘lsa unga:

— Men shu yerdaman! — deb baqiribdi.



Отвел ёж ежиху на конец своей борозды, а сам вернулся на то место, где оставил зайца.

— Ну что ж, — говорит заяц, — побежим?

— Побежим, — говорит ёж.

Стали они каждый у начала своей борозды.

— Раз, два, три! — крикнул заяц.

И оба они побежали со всех ног.

Пробежал ёж шага три-четыре, а потом тихонько вернулся на своё место и сел. Сидит и отдыхает. А заяц всё бежит и бежит. Добежал до конца борозды, а тут ежиха ему и крикнула:

— Я уже здесь!

А надо сказать, что ёж и ежиха очень похожи друг на друга. Удивился заяц, что ёж его обогнал.

— Бежим теперь обратно, — говорит он ежихе. — Раз, два, три!

И помчался заяц назад быстрее прежнего. А ежиха осталась сидеть на своём месте.

Добежал заяц до начала борозды, а ёж ему кричит:

— Я уже здесь!

Ещё больше удивился заяц.

— Бежим ещё раз, — говорит он ежу.



Quyong battarroq hayron bo'libdi.

— Yana bir marta yuguramiz, — debdi u tipratikanga.

— Bo'пти, — deb javob beribdi tipratikan, — agar istasang, mayli, yana bir marta yuguramiz.

Ular yana va yana yugurishibdi.

Shunday qilib, quyong dam u yoqqa, dam bu yoqqa yetmish uch marta yuguribdi. Tipratikan bo'lsa hadeb undan o'zib ketaveribdi.

Quyong jo'yakning boshiga yugurib kelsa, tipratikan unga:

— Men shu yerdaman! — deb baqirar ekan.

Quyong orqasiga qaytib, jo'yakning oxiriga yugurib borsa, tipratikan xonim yana unga:


— Men shu yerdaman! — deb baqirar ekan.

Yetmish to'rtinchi martasida quyong dalaning o'rtasiga yetibdi-da, yiqilib tushibdi.

— Charchadim! — debdi. — Ortiq yugurolmayman.

— Ana, ko'rdingmi endi, — debdi unga tipratikan, — kimning oyoqlari tez yugurar ekan?

Quyong hech nima demabdi-yu, daladan oyoqlarini zo'rg'a sudrab jo'nab qolibdi. Tipratikan bilan xotini esa bolalarini chaqirib, sayr qilgani ketishibdi.



— Ладно, — отвечает ёж. — Если хочешь, побежим ещё раз.

Побежали ещё и ещё раз.

Так семьдесят три раза бегал заяц туда и обратно. А ёж всё его обгонял.

Прибежит заяц к началу борозды, а ёж кричит: «Я уже здесь!»

Побежит заяц обратно к концу борозды, а ежика ему кричит: «Я уже здесь!»


На семьдесят четвёртый раз добежал заяц до середины поля и свалился на землю.


— Устал, — говорит, — не могу больше бегать.

— Вот видишь теперь, — говорит ему

ёж, — у кого ноги быстрее?

Ничего не ответил заяц и ушёл с поля — еле плёлся от усталости. А ёж с ежихой позвали своих детей и пошли с ними гулять.





SOMON, CHO‘G‘ VA LOVIYA

Bor ekan-da, yo‘q ekan, juda-juda qari bir kampir bo‘lgan ekan. U sakson yoshga kirgan ekan. Kampir polizga borib bir lagan loviya teribdi va ularni pishirmoqchi bo‘libdi. «Hozir, — deb o‘ylabdi u, — loviyalarni pishiraman-u, nonushta qilaman».

U pechkaga o‘t qalabdi, olov tuzukroq yonsin deb bir siqim somon ham tashlabdi. Keyin esa loviyalarni qozonga solibdi.

Hamma voqea ana shundan boshlanibdi.

U loviyalarni qozonga solayotganda bir dona loviya polga tushibdi. Tushibdi-yu, somonning yonida yotaveribdi.

Xuddi shu yerga, polga pechkadan bir dona cho‘g‘ sachrab tushibdi.

Shunda somon:

— Aziz do‘stlarim, sizlar bu yerga qayerdan kelib qoldingiz? — debdi.



СОЛОМИНКА, УГОЛЬ И БОБ

Жила-была одна старушка, старая-престарая. Восемьдесят лет ей было. Пошла старушка на огород, собрала целое блюдо бобов и решила их сварить.

«Вот, — думает, — сварю бобы и пообедаю».

Растопила она плиту и, чтобы огонь разгорелся получше, подбросила в топку пучок соломы.

А потом стала сыпать в горшок бобы.

Вот тут-то всё и началось.

Когда сыпала она бобы в горшок, один боб взял да и упал на пол.

Упал и лежит рядом с соломинкой.

И сюда же, на пол, выскочил из печки раскалённый уголек.

Вот соломинка и говорит:

— Милые друзья, откуда вы здесь?

— Men, — deb javob beribdi cho‘g‘, — pechkadan tushdim. Agarda u yerdan tushib ketmaganimda bormi, nobud bo‘lardim: yonib, kul bo‘lib uqalanib ketardim.

Loviya bo‘lsa:

— Mening ham omadim kelib, shu yerga yiqilib tushdim. Bo‘lmasa qolgan loviya do‘stlarimdek shovla bo‘lib pishib, ezilib ketardim, — debdi.

— Men ham pechkaning ichiga tushmay, shu yerga tushganimdan xursandman, — debdi somon ham.

— Xo‘sh, endi nima qilamiz? — deb so‘rabdi cho‘g‘.

— Menimcha, — debdi loviya, — bunday qilganimiz yaxshi. Uchalamiz sayrga chiqamiz.

— Yuringlar, yuringlar, — deyishibdi cho‘g‘ bilan somon.

Shunday qilib loviya, cho‘g‘ va somon birga sayohatga jo‘nashibdi.


Ular yurib-yurib ariq bo‘yiga borib qolishibdi.

Ariq kichkina, ensiz ekan-u, lekin undan o‘tish uchun ko‘prik yo‘q ekan.

Nima qilish kerak?

Somon o‘ylab turibdi-da:

— Mana bunday qilamiz: men ariqqa ko‘prik bo‘lib turaman, sizlar esa mening ustimdan o‘tib olasizlar, — debdi.



— Я, — отвечает уголёк, — из печки. Если бы, — говорит, — я отсюда не выскочил, я бы пропал, пришлось бы мне сгореть и рассыпаться золой.

А боб говорит:

— И мне посчастливилось, что я сюда упал. А то пришлось бы мне, как и другим моим приятелям-бобам, — в каше развариться.

А соломинка говорит:

— И я рада, что в печку не попала, а здесь лежу.

— Ну, а что же мы теперь будем делать? — спрашивает уголёк.

— Я думаю, — сказал боб, — вот что.

Пойдёмте-ка белый свет посмотрим.

— Пойдём, пойдём, — сказали уголёк и соломинка.


И пошли они вместе — боб, соломинка и уголёк.

Долго шли они и пришли к ручейку.

Ручеёк маленький, узенький, а перебраться через него трудно — моста нет. Как тут быть?

Тогда соломинка говорит:

— Мы вот как сделаем: я перекинусь с бережка на бережок, а вы по мне переправитесь, как по мосту.



Shunday qilishibdi ham. Somon ko‘prik bo‘lib turibdi-da, uning ustidan birinchi bo‘lib cho‘g‘ yugurib ketibdi. Xuddi ko‘prikdan o‘tganday bemalol ketaveribdi. O‘rtasigacha yugurib borganda suvning shovillayotganini eshitibdi. U taqqa to‘xtabdi-da:

— Suvdan qo‘rqaman, suvdan qo‘rqaman! — deb baqiribdi.

U to‘xtab baqirayotganda, somon tutab, ikkiga bo‘linib, ariqqa tushib ketibdi. Cho‘g‘ ham suvga tushib ketibdi: «Cho‘kyapman, qutqaringlar!» deb pishillab cho‘kib ketibdi.

Loviya ehtiyotkorroq ekan, u qirg‘oqda qolibdi.

Qirg‘oqda qolib cho‘g‘ va somonning qilgan ishidan kulibdi.


U kulaveribdi, kulaveribdi va kulgidan yorilib ketibdi.

Uning xoli chatoq bo‘lar ekan-u, lekin baxtiga qirg‘oqda tikuvchi o‘tirgan ekan.

Tikuvchi igna-ipini olibdi-da, loviyaning ikkala bo‘lagini bir qilib tikib qo‘yibdi.

Tikuvchining yonida oq ipi bo‘lmagani uchun loviyani qora ip bilan tikib qo‘yibdi.

O‘shandan beri hamma loviyalarning qoq o‘rtasida qora choki bor ekan.



Так они и сделали. Перекинулась соломинка с берега на берег, и первым побежал по ней уголёк. Бежит, как по мосту. Добежал он до середины, слышит — плещет внизу вода. Стало ему страшно, остановился он и кричит:

— Боюсь воды, боюсь воды!

А пока он стоял и кричал, соломинка от него загорелась, распалась на две части и полетела в ручей. Уголёк тоже упал в воду. Он зашипел: «Тону, спасите!» — и пошёл ко дну.

А боб осторожный был, он на берегу остался.

Остался на берегу и давай смеяться над угольком и соломинкой.

Смеялся он, смеялся — и лопнул от смеха.

Плохо бы ему пришлось, да, его счастье, сидел на берегу бродячий портной.

Достал портной нитки и сшил обе половинки боба.

А так как у портного белых ниток с собой не было, он зашил боб чёрной ниткой. С тех пор у всех бобов чёрный шов посередине.





QO'LI GUL QIZ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qiz bo'lgan ekan. U juda chiroyli ekan-u, lekin yalqov va pala-partish ekan. Ip yigirayotganda doim tajang bo'lar, ipida mayda tuguncha uchrasa ham uni shartta uzib, bir siqim zig'irtola bilan tashlab yuborar ekan.

Yalqov qiz mehnatsevar bir qiz bilan dugona ekan. O'sha dugonasi yalqov qiz tashlagan zig'irtolani terib yuraveribdi. Zig'irtoladan bir talay yig'ilib qolgandan keyin esa uni changidan tozalabdi, chigallarini yozibdi, tarab chiqibdi, keyin ingichka, mayin ip yigiribdi. Shu ipdan mato to'qib, o'ziga chiroyli ko'ylak tikib olibdi.

Yalqov qizga yaxshi bir yigit sovchi qo'yibdi. Qiz ham rozi bo'libdi. To'y arafasida kechqurun bazm uyushtirishibdi.



РУКОДЕЛЬНИЦА

В давние времена жила-была одна девушка. Хоть и слыла она красавицей, но была ленива и безолаберна.

Когда она пряла пряжу, даже самый крохотный узелок на нити выводил её из себя, она рвала пряжу на куски и выбрасывала целую горсть льняных волокон.

У ленивицы была подружка — трудолюбивая девушка, во всём рукодельница, которая всё время подбирала выброшенные ленивицей волокна. Когда волокон набралось много, рукодельница вычистила их, перебрала, вычесала и спряла из них тонкую, нежную нить. Из нити она соткала ткань и сшила себе красивое платье.

К ленивой красавице посватался хороший видный жених. Девушка согласилась выйти за него замуж.

Uning mehnatkash dugonasi bazmda yangi ko‘ylagini kiyib raqs tushibdi.

Kelin uni ko‘rib qolibdi-da, to‘ng‘illabdi:

— Quvonasan, nega buncha, o‘ylagin?
Qatimlardan, axir, kiygan ko‘ylaging.

Uning so‘zlarini kuyov eshitib qolibdi va undan nimalar deyayotganini so‘rabdi.

Yalqov qiz dugonasining qanday zig‘irtoladan o‘ziga ko‘ylak qilib olganini aytib beribdi.

Kuyov bu gapni eshitib, qallig‘ining ishyoqmasligini fahmlabdi va undan voz kechib, mehnatkash qizga uylanibdi.



Накануне свадьбы в доме невесты состоялась вечеринка. Её трудолюбивая подружка пришла на вечеринку в своём новом платье и стала танцевать.

Ленивица глядя на нарядную весёлую подружку, недовольно пробурчала:

— Откуда столько радости и прыти?
Ведь платье соткано из обрывков нити.

Жених услышал эти слова, и спросил у невесты о чём она говорит.

Ленивица рассказала ему о том, как её подруга смастерила себе платье из выброшенных ею льняных волокон.

Тут жених понял, что невеста его не любит трудиться, поэтому отказался от неё и женился на трудолюбивой девушке.






MUNDARIJA

UCH BAXTIYOR.....	4
BOTIR TIKUVCHI.....	18
OQOYIM VA GULOYIM.....	44
UCH AKA-UKA.....	72
BO‘RON KAMPIR.....	80
YALQOV GEYNS.....	98
MITTI ODAMCHALAR.....	106
BIR XUMCHA SHOVLAR.....	114
YETTI SHAHZODA-QARG‘A.....	120
TULKI BILAN G‘OZLAR.....	132
QUYON BILAN TIPRATIKAN.....	136
SOMON, CHO‘G‘ VA LOVIYA.....	148
QO‘LI GUL QIZ.....	154





ОГЛАВЛЕНИЕ

ТРИ СЧАСТЛИВЦА.....	5
ХРАБРЫЙ ПОРТНОЙ.....	19
БЕЛОСНЕЖКА И КРАСНОЗОРЬКА.....	45
ТРИ БРАТА.....	73
ГОСПОЖА МЕТЕЛИЦА.....	81
ЛЕНИВЫЙ ГЕЙНЦ.....	99
МАЛЕНЬКИЕ ЧЕЛОВЕЧКИ.....	107
ГОРШОК КАШИ.....	115
СЕМЬ ПРИНЦЕВ-ВОРОНОВ.....	121
ЛИСА И ГУСИ.....	133
ЗАЯЦ И ЁЖ.....	137
СОЛОМИНКА, УГОЛЬ И БОБ.....	149
РУКОДЕЛЬНИЦА	155





МИТТИ ОДАМЧАЛАР

ЕРТАКЛАР

О'zbek va rus tillarida

БРАТЪЯ ГРИММ

МАЛЕНЬКИЕ ЧЕЛОВЕЧКИ

СКАЗКИ

На узбекском и русском языках

Muharrir RA'NO AZIMOVA

Badiiy muharrir SHUHRAT ODILOV

Texnik muharrir YELENA TOLOCHKO

Musahhihlar MAHMUDA USMONOVA, GEORGIY XUBLAROV

Kompyuterda teruvchilar GULBAYRA YERALIYEVA,
SHOIRA ALIMOVA

Bosmaxonaga berildi 08.05.2008. Bichimi 84×108¹/₁₆. Ofset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i 16,80 + +0,84 zarvarak. Nashr bosma tabog'i 26,2 + 1,4 zarvarak. Jami 5000 nusxa. Shartnoma 55 – 2008. Buyurtma 186 . Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.

84(4Gem) .

G84

Grimm, Yakov.

Mitti odamchalar: Ertaklar/Ya. Grimm, Grimm Vilgelm Karl; Rassom Uyg'un Solihov. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 160 b. – (Jahon bolalar adabiyoti durdonalari). – Matn o'zbek va rus tillarida.

I. Grimm, Vilgelm Karl.

G 0301080000-55 – 2008
360/04/-2008

BBK 84(4Gem)